

O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR  
UYUSHMASI

# RAVSHAN FAYZ

YURAKNING POYONSIZ  
ADIRLARIDA

*She'rlar*

TOSHKENT  
«ADABIYOT»  
2021

Loyiha rahbari  
**Sirojiddin SAYYID,**  
*O'zbekiston xalq shoiri*

Mas'ul muharrir  
**G'ayrat MAJID,**  
*O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, shoir*

To'plab, nashrga tayyorlovchi:  
**Yulduz FAYZIY,**  
*Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sohibasi, jurnalist*

Taniqli shoir Ravshan Fayz umrining so'nggi yillarida nashrga tayyorlamoqchi bo'lgan kitobini "Yurakning poyonsiz adirlarida" nomi bilan e'lon qilishni orzulagan. Mana, shoirning orzusi ushaldi, qo'lingizda shu nomdagi kitob. Ushbu she'riy guldasta qalbingizga bir olam hayajon, yorug'lik, harorat olib kirishiga aslo shubha yo'q. Chunki kitobdagi satrlar buloq kabi toza yurakning so'nmas sadolaridir.

ISBN 978-9943-6958-2-55

© R. Fayz, 2021  
© «Adabiyot», 2021

---

## UMIDLI SHOGIRDIM EDI...

Eng qadim va boy ona tilim bisotida har qanday voqea-hodisani ifodalovchi soʻzlar yoʻq emas. Lekin bir navqiron yigit qirchidan qirqilsa, dunyodan oʻtsa va buning ustiga u pokiza-yu halol, sadoqatli ham vijdonli bir shoir boʻlsa...

Undan ayrilganda oʻz afsus-nadomating-u gʻam-gʻussangni qaysi soʻz bilan ifoda qilasan?! Ravshan Fayz – iloyo, Xudo rahmat qilsin – meni ustozim deb etagimdan tutgan edi. Shogirdim ravon va teran sheʼrlar yozib, katta yoʻlga chiqa boshlaganida oʻzbek sheʼriyatining chamanzori bulbulsiz qolmayajak, deya iftixor etgan edim.

Yaratganga ming bora shukronalar ayta turib, dilimdan kechayotgan gʻussani ham bayon qilishim kerak-ku! Bir vaqtlar “Gulxan” jurnalida muharrir boʻlgan chogʻimda Ravshanni ishga taklif qilgandim. Oʻsha yillardan buyon ukamning hayoti-yu ijodini muttasil kuzatib kelardim.

Ajal-ku bor gap. Biroq avji saraton osmonida momaqaldiraq guldirab yashin chaq-nasa, hayratga tushasizmi, yo‘qmi? Ravshan Fayzning bu tiriklik dunyosidan ketishi ham shundoq mash‘um hodisa bo‘ldi. Uning guldek uchta farzandi, onajon qavmidagi kelinimiz, qavm-qarindoshlariga ko‘zda yoshim bilan ta‘ziya izhor qilaman.

Xalqimiz bunday yo‘qotishlar haqida quyidagi gapni azaldan aytib qo‘ygan:

“Yigit ketsa Asqar tog‘lar cho‘kadi...”

**Abdulla ORIPOV,**  
*O‘zbekiston Qahramoni,*  
*O‘zbekiston xalq shoiri*

\* \* \*

Ko'nglima orzular solgan qishlog'im,  
Olis-olislarda qolgan qishlog'im.  
Kelib qolarmi deb, har sahar, har shom  
Ko'zlari yo'limda tolgan qishlog'im.

Mening maqsadimdan ko'nglim ko'p to'qdir,  
Armon nishoniga tegmagan o'qdir.  
Orzuning izmida hamon hayotim,  
Lekin bu yo'llarning adog'i yo'qdir.

Aytgil, selmasmidi men tanlagan yo'l,  
Sayrga eltmasmidi men tanlagan yo'l.  
Olis-olislarda ovoradurman,  
Borsa-kelmasmidi men tanlagan yo'l.

Ko'zlari yo'limda tolgan qishlog'im...

## QISHLOQ SOG'INCHI

Ey ota yurt, ey tug'ishgan el,  
Men bir o'smir, men bitta gulni  
Orzu-havas degan tanti yel  
Qay bir bahor bag'ringdan yuldi.

So'ng taqdirga rahmatlar aytib,  
O'shal yuksak orzumga yetdim:  
Tinim bilmas devona, daydi  
Shamollarga aylanib ketdim.

Ulangandim yuragim bilan  
Asli sening jon-u jismingga.  
Endi yana bu dunyo bir kam –  
Orzuim yo'q, armonim mingta!

Endi tunlar yuragim og'rir,  
Sog'inaman seni, qishlog'im,  
Dashtlaringni eslayman og'ir  
Qoyalarga urilgan chog'im.

Turib-turib keladi ko'rgim,  
Sen-chi, sen ham sado bergin, hoy,  
Bilinar mi hali ham o'rnim,  
Og'riydimi men yulingan joy?!

## EY, VATAN

Dunyo deganlari bunchalar keng-a,  
Men yashay bilmadim ko'nglimni yenga:  
Ketar bo'lsam doim, ey, Vatan, senga  
To'ysam o'zim to'ydim, ko'zim to'ymadi.

Qachonki yo'l meni zabtiga oldi,  
Xotir, xayollarim toliqdi, toldi  
Va mudom ko'zlarim ortimda qoldi,  
To'ysam o'zim to'ydim, ko'zim to'ymadi.

Sog'inch meni qay kun yel etdi yana,  
Orzu-armoningga el etdi yana,  
Ko'zimning yoshini sel etdi yana:  
To'ysam o'zim to'ydim, ko'zim to'ymadi.

## DASHT

Keldim. Topib keldim. Turibman yo'qlab.  
Qo'limda, yo'limda ko'chim-ko'ronim.  
Meni tanidingmi, juvonmard ko'klam,  
Meni esladingmi, ozod bo'ronim?

Bag'ri yer, bag'ri dog' bitta bo'lagim,  
To'rg'ay-tushlarimning charx urar joyi.  
Hali men aytmagan mahzun o'lanim,  
Aziz tog'larimning muqaddas joyi.

Qo'yningda entikib yugurar shamol,  
Surinib yurmasdan yo'llarda toshga.  
Yotibsan kengliging misoli xayol  
Ko'milib muzaffar boboquyoshga.

Hayqirsam hech narsa bermas aks sado,  
Garchi quyosh kabi balanddir damim.  
Bilaman, nafasim yetmaydi ammo  
Seni kuylash kerak seravj o'lanim.

Turibman ko'ksimda muqaddas bir shasht,  
Maqsadim kuylamoq ko'nglimni yozib.  
Lekin sog'inch kabi cheksizdirsan dasht,  
Hayqirsam poyingga yetmas ovozim.



## OTAMNING YURTI

Chigit ekilmaydi yeriga hech ham,  
Aygashib-uyqashib yotar xarsanglar.  
Lekin yig'im-terim payti kelganda  
Hasharga ketadi bor yosh-yalanglar.

Do'ppiday bir qishloq. Atrofi tog'lar...  
Boshidan ketolmay yursa ham tuman  
Ko'rinib turadi uzoq-uzoqlar,  
Zerikmay yashashing mumkin, umuman...

Har gal otlanganda ota yurtimga,  
Bilmayman, negadir ko'zim yoshlanar.  
Shovqinlar, suronlar qolib ortimda,  
Oddiy va ajoyib kunlar boshlanar.

Entikib, emranib borganim sari  
Tanish qo'yko'zlarim qarar havasda.  
Dunyoda bor mayda gaplarning bari  
Chiqolmay uzilib qoladi pastda.

U yerga buloqlar chiqadi balqib...  
Tog'lari mo'ysafid – boshlari oppoq.  
Yolg'on nimaligin bilmagan xalqi  
O'sha tog'lariday yashaydi uzoq.

\* \* \*

Gulga kirgan bog'larim qoldi,  
Qirchillama chog'larim qoldi,  
Talqon bo'lmay tog'larim qoldi,  
Men yoshlikni tark etib ketdim.

Ishq keldimi, qiynadi bir sir,  
Shul sezimga bo'lmay deb asir,  
Qo'l siltadim bariga basir,  
Men yoshlikni tark etib ketdim.

Ko'nglimni hech etmadim bozor,  
Suyganimga bermadim ozor.  
Majnun misol bo'lmasdan xor-zor  
Men yoshlikni tark etib ketdim.

Yuragimni rashklarda yoqib,  
Tohir kabi yurmay deb oqib,  
Toleyimga etagim qoqib,  
Men yoshlikni tark etib ketdim.

Gul faslida qolmagay dunyo,  
Xayr, Layli, alvido, Zuhro.  
Yoshlik meni tark etmay, illo,  
Men yoshlikni tark etib ketdim.

\* \* \*

Seni deb bilmasman tinim nima ul,  
Tejab-tergaganim seniki butkul.

Yuragimni yutib topganim senga,  
Tiyin-tiyinga urib topganim senga.

Bobolarim yotgan yerlarim qolar,  
Shamollar shoviri – she’rlarim qolar.

Uzilgan kunidan nasibam, nonim,  
Sengadir she’r yozib orttirgan nomim.

To umr o’tkinchi ekan, netarman,  
Ertami-kech barin tashlab ketarman.

Ketarman tuproqqa teng bo’lib, illo,  
Bu-chi parvoyingga kelmaydi ammo.

Boisi, sen o’jar bolamsan, dunyo,  
Bo’gzinga sig’magan nolamsan, dunyo.

Zorlarni bilmagan zolim, zo’rimсан,  
Dunyo, sen eng erka merosxo’rimсан.

\* \* \*

Tayyorman, kel endi qo'llaringni ber,  
O'rlikmi, jarlikmi ketavergum tik.  
Mabodo yiqilsam ko'taradi yer  
Va o'ttiz uch yillik kuch, tayyorgarlik.

Tayyorman. Kel, endi yo'l ko'rsat qani,  
Ketaman ortiqcha biron gap qilmay.  
Sen bilan yurmakda bordir deb ma'ni,  
Mana, men turibman shamol kabi shay.

Tayyorman. Kel, endi egarla otni,  
So'ng boshlagin boshing oqqan tomonga.  
Tinglab to'ymadingmi, bu jo'n bayotni,  
Yur, ketskik yangi qor yoqqan tomonga.

\* \* \*

Sen mening umrimning avvali, boshi,  
Tarixga aylangan otamsan, Vatan.  
Labimning kulgusi, ko'zimning yoshi,  
Menga armon bo'lgan odamsan, Vatan.

## KELDIM

Oy nuriday milyon yil oqdim,  
So'ng ko'zda yosh, ko'kayimda kuy.  
Sening temir darvozang qoqdim:  
Yo'linga chiq, qo'linga suv quy.

Men bor-yo'g'i bitta mehmonman,  
Sen-da mezbon bo'lmoqqa yara:  
Erta-yu kech kulib yur, sho'x-shan,  
Qadringa yet, ko'nglinga qara.

Kechalari sig'may o'zimga  
Ko'p siqilib ketayapman, o.  
Mo'jizaga chanqoq ko'zimga  
Maqtangulik nimang bor, dunyo?

Kiydir, to'ydir va goh-gohida,  
Aytib bergin bir g'azal yo she'r.  
Tinglamosam koyima, chida,  
Tiling tishla, shaytonga hay ber.

Xato qilsam, qo'l siltab qo'y-u,  
Sibirlarda bermagil jazo:  
Sen shuqadar muqaddas, mangu,  
Men – besh kunlik mehmonman, dunyo!

\* \* \*

*“Meni kechir, Vatanim...”*

Oyaris VASIYETIS

Maqtadim, madh etdim mehmonlaringga  
Dunyoda topilmas noz-u ne'mating.  
Ne aytsam aytdim-u, ammo hech kimga  
Hech qachon bu mening mulkim, demadim.

She'r bo'lib, kuy bo'lib to'kildi alyor  
Va yetti iqlimga yetdi ovozim.  
Baxmal deb nom oldi kelgan har bahor,  
Oltin deb ataldi har bitta yozing.

Madorim, mehnatim, mehrimni berdim,  
Berdim bor-yo'g'imni, senga dala-tuz.  
Shundan osmono'par oq oltin terdim,  
Lekin oqarmadi toshkosam, afsus...

Va shundan qaddimni tutolmasdan tik –  
Bu kuchli g'o'zalar barini yengdi.  
Yurtim, yuragimda xavotir, hadik:  
Nahotki suq kirdi, nahot ko'z tegdi?

Tuproqqa do'narkan obidalarining,  
Noz-u ne'matingdan qochayotir ta'm.  
Endi har bolangning quvonchi yarim,  
Or-nomusni ayting... hammasidan ham.

Endi she'r o'rniga, kuy o'rniga g'am,  
Yettinchi osmonga yetmoqda dodim.  
Ammo ne qilayki, yetti osmondan  
Balandroqda ekan mening dodxohim.

...Vatanim, aldamchi ekanman, senga  
Baxshida qildim deb bor imkonimni.  
Aslida shu bitta qo'rquvni yenga  
Bera olmabman-ku, axir jonimni.

\* \* \*

Shiddatli shamollar tinchidi, tindi,  
Sovuq saslarini etganча bekor.  
Qarasang ko'zlaring kuydirib endi  
Gulxanlar yoqmoqda qirlarda bahor.

Shabada shu o'tga urilib ketib,  
Qo'lini kuydirib yugurdi, yeldi.  
Bu qadim dunyoga chiroy baxsh etib,  
Qumursqa, qaldirg'och, laylaklar keldi.

Keldi tabiatga minglagan niyat  
Qaytdilar, qaytdilar orzular ming-ming.  
Faqat ming bor ta'zim, ming bor xayriyat,  
Miyamga qumursqa in qurdi mening.

## AKAM SADIRIDDINGA XAT

– “Bolalikning bahorlari o‘tdi, ulg‘ayding  
Endi yurar yo‘llarimiz boshqa, boshqadir.  
Uka, keldi aravangni sudramoq payting,  
Endi o‘zing haqda o‘zing bosh qotir.

Qara-yu havas qil tengqurlaringga,  
Yo‘g‘onlashib borar yil sayin po‘sti,  
Sen esa ishonib shu bir she‘ringga,  
Na duming chiqdi-yu, na shohing o‘sdi.

Uka, yashayapsan bilganing qilib  
Boryapsan poyingda borsa kelmas yo‘l,  
Hech narsang kerakmas, menga ishqilib,  
O‘zingning kuningga o‘zing omon bo‘l”.

– Bir kuni men sizni do‘st-u yor bilib,  
Aytaman, kelasiz quduq qazyapman.  
Mustar sog‘inchlarim bir quloch qilib  
Dasht, quduq va suv haqda she‘r yozayapman.

Bir yorug‘ orzuga asirman, aka...  
(Qiziq bo‘larmikan ularning tafti).  
Bilmayman, negadir, mening juda ham –  
Kunduz yulduzlarni ko‘rgim kelyapti.



Chorlayman, ko'rasiz mana bir kuni  
(Men axir rostdan ham she'r yozayapman)  
Ko'ray deb kunduzim yulduzlarini,  
Aka, igna bilan quduq qazyapman.

Men axir rostdan ham she'r yozayapman...

### ONA

Toleyingga bitgan toza tabassum,  
Rosmana yig'isi manov dunyoning.  
Issiq jon – loaqal og'risang bir zum,  
Bir zumda falakka yetguvchi ohing.

Seni kuta-kuta sarg'ayar sog'inch,  
Sen rostdan har kuni kirib chiqar tush.  
Sezib – atrofingda aylansa yog'iy,  
Eng avval tug'ilar – eng shafqatsiz musht.

Eng ulkan oqibat, eng issiq mehr,  
Yurakni ishonsang – ishonchli olam.  
Lol qolsang kulgiga qo'ymovchi sehr,  
Yig'lasang va kuysang – eng muqaddas g'am.

## ONAMGA XAT

Murg'ak ko'zlarimni qiynarkan uyqu,  
Akamning gaplarin ilg'ardim elas.  
U ta'rif berishdan tinmasdi bir zum:  
"Toshkent – bu senga Qo'shrabot emas.

U yerda poyezdlar chinqirib yelar  
O'ziga qurilgan temir yo'lidan,  
Sen kabi bolalar adashib ketar  
Akasi yurmasa tutib qo'lidan..."

Sirdoshim daraxtlar quloq tutdi jim,  
Jo'ralar yuzida hayajon, havas,  
Akamning so'zlarin ming takrorladim:  
"Toshkent – bu sizlarga Qo'shrabot emas..."

Ona, bir kun qo'shrabotlik gapchinox chollar  
Biz yosh-yalang suhbat uchun eng qulay mavzu:  
– Rizoqulning Ravshani-chi, – deb yoydi xabar, –  
Shoirlikka o'tgan emish qilganday orzu...

Yashil-yashil yaproqlarni saratondan saqlagay  
Shoxlarida bolalarni allalar arg'umchoq – baxt.  
Qushchalar ham uchib, chug'ur-chug'ur sayragay,  
Barchaga teng, barobar saxiy ekan bu daraxt.

Ona, uni daraxt dedim tomirlari mustahkam,  
Olis o'tmish shamollari vujudini yemirgan.

Lekin olov garmisel-u sovug'ida qishning ham  
Mag'rur tutib yashayotgan, yashaydigan chayir tan.

Endi har tong mening ham borar uyqumni surib  
Tomirining ostida poyezdlari chopgan shaxt,  
Ikki milyon farzandin bag'rida tutib turib,  
Ikki ming yil ko'rgan o'sha yam-yashil daraxt.

### SHOIR

Hech narsa kerakmas unga aslida,  
U barcha qatori yashayapti to'q.  
Tabiatning qishi – ayoz faslida,  
Kiyar kiyimining yirtiq joyi yo'q.

Nolisa manglayi bo'lmasdi qashqa –  
Do'stning vafosidan totingan, to'ygan.  
Lekin u onasi – vijdonidan boshqa  
Hech kimni, hech kimni sog'inmay qo'ygan.

Faqat u yalang'och paykalda yurib,  
Vaqtga aldanganicha, kelganida yoz –  
Yelkalari kuygan bolani ko'rib,  
Oq ko'ylak kiyishni aytyapti, xolos.

\* \* \*

Yurdim,  
yurdim yo'llar tugadi.  
Sizga yetmoqlikka yetmadi yo'lim,  
Endi turib-turib ko'nglim cho'kadi  
Bir yig'i keladi ko'kragim to'lib.

Siz misli qoyada ko'kargan bir gul –  
Siz yuksak,  
Yuksakka yetmadi qo'lim.  
Endi ne qilayin,  
ne qilsam ma'qul?!  
...Lekin baribir siz, siz baxtli bo'ling.

Mening-chi, ko'kayin – ko'nglim buzildi,  
Mening-chi, ko'kragim ketdi-ku to'lib.  
Ichimda nimadir... uzildi  
Bir yig'lasam dedim,  
Bir yig'lasam dedim ko'l ko'lob bo'lib.

Lekin bu bilan hech kam dunyo to'lmas,  
Dunyo to'lganda ham to'lmaydi ko'nglim.  
Ayolga baxtli bo'l deya  
baqirib bo'lmas,  
Erkak baxtsizman deb yig'lay ham olmas,  
Lekin, baribir siz, siz baxtli bo'ling!

\* \* \*

*“Yurak, sensan mening sozim”*

Usmon Nosir

Ko'krak qafasimga osilmish mangu,  
Ming bitta zanjirli, ming bitta torim.  
Asli shu soz kabi yashayapman-u,  
Lekin yozganim yo'q ko'ngil g'uborim.

Sozimning sil, salqi torlari aro  
“Dugoh”im, “Segoh”im gung – ohim uxlar.  
Demakki, har yonga bosh urmay uryon  
Hayotim – savob-u gunohim uxlar.

Bosh qo'yib torimning rishtalariga  
Tosh qotmish hayotga aytarim – bayot.  
Tosh qotmish eng erkin rozim “Barigal”  
Va eng mustarligim ramzi “Munojot”.

Tilimdan to'kilgan bu tuyg'ularim,  
Balki kunlarimdir dilim g'ash qildi.  
Netayki, she'rlarim – baxt, qayg'ularim  
Sozimni sozlashga qilgan mashqimdir.

## ONAM VA MEN

Va bir kun mening ham oyog'im chiqib  
Tentiray-tentiray yo'lga kirganman.  
Siz va boshqa ja'mi bolalar kabi  
Faqat tashqariga qarab yurganman.

Onamning boshidan es-hushi uchib,  
Ortimdan kuzatgan cho'zib qo'llarin.  
Mening-chi, qo'limdan likobcham tushib  
Chil-chil chinnilarga to'lgan yo'llarim.

Tobora yurishning hadisini olib,  
Ketdim, ketaverdim ortimga boqmay.  
Onam o'z hayoti bir yonda qolib,  
Ortimdan ergashdi xuddi soyaday.

Ki hamon ortimdan kelar yilma-yil,  
Hamon yurolmasman qaddimni tutib.  
Men rostdan yalqovroq bolaman shekil,  
Tutganlarim sinar qo'limdan tushib.

Hamon ketayapman o'zimni bilmay...  
Siniq parchalarga to'lar yo'llarim.  
Onam, onam esa hech narsa demay,  
Izma-iz kelmoqda cho'zib qo'llarin.

Oldimda mo'jiza – tentiraydi lol,  
Orzu-niyatlarim ushalar bir-bir.  
Ortimda (bilaman sodda bir ayol...)  
Shishalar ustidan kechar bir umr.

## QISHLOQDAN QAYTISH

Boshingda oy kabi to'ldim, ota yurt,  
Keyin sendan ketar bo'ldim, ota yurt,  
Munchalar mung'ayib qolganing ko'rib  
Uzilgan gul kabi so'ldim, ota yurt.

Bir kun ko'z oydin der, do'stlar ko'rganda –  
Boshingda oy chiqar o'zing o'rgangan.  
Kutgil va ko'rasan shonga burkangan,  
Ismimni beraman senga, ota yurt.

Bugun ko'z yoshimdan ko'ngil bog'imda  
Ohular suv so'rar so'l-u sog'imda.  
Shundan tillarimda bitta o'tinch bor:  
Mung'ayib termulma ketar chog'imda.

Ko'ksimga orzular solgan ota yurt,  
Olis-olislarda qolgan ota yurt.  
Kelib qolarmi deb har sahar, har shom,  
Ko'zlari yo'limda qolgan ota yurt.

Toki she'r bo'larkan dildagi cho'g'im  
O'zimniki erur ochim-u to'g'im,  
Bu dunyoga kelib topgan bor-yo'g'im –  
Jismimni beraman senga, ota yurt.

Bugun ko'z yoshimdan ko'ngil bog'imda,  
Ohular suv so'rar so'l-u sog'imda.  
Shundan tillarimda bitta o'tinch bor:  
Mung'ayib termulma ketar chog'imda.

## **ABDULLA ORIF SO'ZI**

Hazilni ko'tardim, zilni ko'tardim,  
Oy misol aylandim, yilni ko'tardim.  
Hayot dengizining girdoblariga  
Tosh misoli cho'kkan dilni ko'tardim.

Lol-hayron termulma bo'y-u bastimga,  
O'tgan-u ketganim baland-pastimga.  
She'r yozdim bir qilib ikki olamni,  
O, ilhom parisi tushdi qasdinga.

Giyohday go'dakning ko'nglini oldim,  
Ko'ksimga osmonday orzular soldim.  
Qanotim bor edi yulduzga uchsam,  
Ammo men seni deb zaminda qoldim.

Bormasam bormadim onam qoshiga,  
Diydoring almashib men ko'z yoshiga.  
Oxir ega chiqdim bir uyum tuproq  
Va bitta mung'aygan qabr toshiga.

Tunlarga ko'zimning nurini berdim,  
Tiniq tonglariga quchog'im kerdim.  
Sen yurtning chigitin qadagan bo'lsang,  
Men yomg'irda qolgan paxtasin terdim.



Ruhimda bahorga burkangan adir,  
Bog'lardan rang oldim, gullardan atir.  
Men so'z safariga jo'narim oldi  
Daryo shiddat berdi, tog'-toshlar sabr.

Balki men ham senday jimjit o'tardim,  
Biroq yuragimga sig'madi dardim.  
She'r yozdim, Navoiy hazratdan qolgan  
Shuhratni ko'tardim, shonni ko'tardim.

Har neki nokerak, kerakni oldim,  
Ko'ringan ko'za-yu chelakni oldim.  
Yo'l olis bir kuni asqotar deb, huv,  
Tuyani bo'kirtgan elakni oldim.

Jilg'ani uyg'otdim, selni ko'tardim,  
So'ng ogoh bo'l, deya elni ko'tardim.  
Ehtimol, bo'ronni boshlagan boshqa  
Men bor-yo'g'i yengil yelni ko'tardim.

Kingadir baribir alam qilar, o,  
Olganim oltin-u tutganim tillo.  
Hech kimni yer mushtlab qarg'amadim men,  
Hech kimning qarg'ishi kor qilmas, illo.

## **KASALXONADA**

Hali qish, kirlari yotibdi erib,  
Zamin, ziroatga kuch-quvvat berib.  
Ertaga, ertaga qushlar keladi,  
Bir tonglar otadi qulochin kerib.

Buguncha bahorning tashvishlari ko'p,  
Yana qish yo'liga qalayotir cho'p.  
Ko'rasan, ertaga ko'zni kuydirib  
Bir qizlar chiqadi ko'chaga to'p-to'p.

Men umid degan bir vatanda o'sdim,  
Orzu yopib turdi bor kam-u ko'stim.  
Ertaga gul olib bahor keladi  
Va bizlar tuzalib ketamiz, do'stim.

## **BIR KAM DUNYO**

Qo'shnimning otgani o'qi bor ming-ming,  
Ko'zlarga, ko'rarga ko'zi ham bordir.  
Faqat kemptikligin qarang taqdirning,  
U sho'rlik bir umr miltiqqa zordir.

## ASORAT

Bilmasman, Qodiriy qoldi qayerda,  
Bilmasman, Usmonning ne aybi bordir.  
Ahmad xazon bo'ldi juda ham erta,  
Rahmat umr ganjidan bo'lgandir judo.  
Bir ayol xat kutar hamon eridan:  
"Men senga nima ham qilgandim, Xudo..."

Kim uchun farqsizdir zulmatmi yo nur –  
Sibir qo'lini qoldirib qaytgan.  
Sibir jon o'g'risi,  
Sibir – kissavur,  
Kimdir til – so'zini oldirib qaytgan.

O'ttiz yettinchi yil boshlandi qirg'in,  
Qirqinchi yillarda bo'пти qiyomat.  
Xudo yorlaqabmi,  
Qo'llabmi pirim  
Tirik qolganligim – taqdirmi, omad?

Faqat shul... to'rt mucham tugalmas, dilda  
Mayib-majruhliligim necha bor tuydim:  
O'sha mash'um o'ttiz yettinchi yilda  
Men ham yuragimni oldirib qo'ydim.

\* \* \*

Yashil nasim eding, teran o'y eding,  
Boshimga toj qilib kiygandim seni.  
Sodda ishonchimni kemirding, yeding,  
Aldading, aldading, aldading meni!  
Qaydan paydo bo'ldi senda bu sabr?  
Nimaga mahliyo termulib qolding?!  
Ogoh qil, xabar ber, tushuntir ajr,  
Men seni ko'tarib yurishdan toldim!  
Seni yerga qo'yib, diling g'ashlayman:  
To ko'rmas ekansan ko'zda yoshimni –  
Ko'zlaring o'ngida uzib tashlayman  
Ostingda ezilib ketgan boshimni.  
Va sensiz... lekin shu taxlit,  
Yashashim dilimga solmaydi alam.  
Shunday... haykallarga qilmagin taqlid,  
Ey, mening boshimda o'tirgan odam.

## **MEN BIR DARAXT**

*Otam Rizoqul Fayzulla o'g'li xotirasiga*

Men yuzaga chiqqan davomingizman...  
Quyoshga talpinib turibman, vale  
Yaproqlar yozishim, gullashim sizdan,  
Siz mening tomirim, mening avvalim.

Men esa o'yingiz, xayolingizman,  
Bir ozod ruhingiz bo'laman yana.  
Dunyoga bejavob savolingizman –  
Turibman-ku, qayta-qayta aytila.

Biri birimizni ko'rmadik biroq,  
Qarayman maysalar bo'y berar tizga.  
Va sizni yashirar bu toshli tuproq,  
Men tuproqni yorgan davomingizman.

\* \* \*

“Assalom alaykum, dorning og‘ochi...”  
Ergash Jumanbulbul aytgan qo‘shiq bu.  
Unga nasib etdi nazm taxt-toji,  
Muborak nafasi yashaydi mangu.

Sharaflar, shonlarga burkangan nomi,  
Tillardan tillarga ko‘chmoqda, mana.  
Abadiy uzilmay uning davomi  
Chiqib kelaverar yana va yana.

Boychechak bayotin she‘rga solgan kim,  
Kim ovloq adirdan gul, giyoh yiqqan.  
Cho‘pon-cho‘liqlarning dardiga hakim,  
Bo‘lganlar aslida shu eldan chiqqan.

Bu buloqning ko‘zi abad ko‘milmas,  
Bor bo‘lsa dunyoning bahor, yozlari.  
Turonga tabarruk kuz keldimi, bas,  
Davrani to‘ldirar chavandozlari.

## SUNBULADA

Yomg'ir hidi kelar havodan,  
Dov-daraxtlar o'yga tolar jim.  
Nogoh titrab ketadi odam,  
Yo'laklarda ko'rinmas hech kim.

Sevgi tashlab ketgan ayolday  
Bog'lar g'ami bilmas endi had:  
"Qayda qoldi muruvvatli may,  
Qayda javzo, saraton, asad?.."

Daraxtlarday ich-ichingdan,  
Titragancha turasan unut.  
Ko'kda qushlar chug'urlab, zimdan  
Uzoq yo'lga ko'rar taraddud.

Keyin ular ucharkan shoshib  
Hammasiga qo'l siltab, birdan.  
Ketging kelar qirlarni oshib,  
Ketging kelar qaygadir biram.

## KAMTAR ULUG'BEK

Chaqirib tunlar oy, kunduzi quyosh,  
Tovonin qitiqlab qo'ysa ham bahor,  
Yerda yashayverdi ko'zlarida yosh  
Yuksak yulduzlarga intiq, intizor.

Dunyoda ko'nglini yarim etmadi,  
Tungi osmonlarga boqdi jovdirab.  
Lekin u xalqini tashlab ketmadi,  
Qaysidir aqlsiz ahmoqqa o'xshab.

Eng qiyin damlarda dilini xira  
Etib taxtparastlar bersa-da ozor,  
Olis osmoniga uchmadi sira,  
Garchi charx urmoqqa qanotlari bor.

Sen-chi, sen yulduzdan yulduzga yetding,  
Yot tilda bulbulday sayrashing bilan.  
Xalqing ichra yurib, xalqingdan ketding,  
O, ona tilida gapirmas odam.



\* \* \*

Avval taqdirimning kamiga kuydim,  
So'ng g'arib dunyoning g'amiga kuydim,  
Endi ko'zlaringning shamiga kuydim,  
Kuydirib, yondirib yashayver, ey yor.

Soyaday sarg'ayib sog'-u so'lingda,  
Nigohim to'sharman yurgan yo'lingga.  
Sen shunday toleyim tutib qo'lingga,  
Kuydirib, yondirib yashayver, ey yor.

Dunyoni to'ldirib vola-yu vohim,  
Oxir osmonga ham yetdimi ohim. –  
Boshimdan zar sochdi tunlari mohim,  
Kuydirib, yondirib yashayver, ey yor.

Mayli, men ko'yingda yuragim yulib,  
Ostonangda yotay it kabi ulib.  
Sen esa yer bo'lgan ishqimdan kulib,  
Kuydirib, yondirib yashayver, ey yor.

*Rustamga*

Sim xabar qo'lingda yig'larkan yum-yum,  
Daf'atan uxlashdan ra'ying o'zgardi,  
Yo'llarda tugadi o'sha uzun tun, –  
Azim Toshkent tongi sensiz bo'zardi.  
Yetib borganingda halloslab, horib,  
Mung to'la nigohlar berdilar jabr.  
Faqat qarshi oldi sovuq hayqirib,  
Haqqulobod yeridagi eng so'nggi qabr.  
Kim u turolmagan haykalday qotib?  
Suyaklar sinarkan qarsillab, birdan  
Issiq shu tuproqqa yurakni otib  
Olam jimligini buzib hayqirgan?!  
...Sog'inch tushlar ko'rib uxlaymiz, do'stim,  
O'ylaymiz chertilsa eshik betoqat:  
"Bizlarni bemahal yo'qlayotgan kim?  
Ishqilib, uy ichi bo'lsin salomat".  
Yaqinlar yashaydi olisda bizdan,  
Ularga olamning hammasi ma'lum.  
Biz-chi, madad kutib temir izlardan  
Ba'zan kechikishga mahkummiz, mahkum.

## IJARA UYDAN KO'CHISH

Eng issiq kunlarim qoldi bu yerda...  
Haydadi muddat ham bermay qun – kofir.  
E'tiroz bildirmoq qayda, qayerda,  
Axir men bor-yo'g'i bitta musofir.

Jo'nadim shamoldek beso'z, besavol,  
Uxlab yotar edi ota Turonim.  
Yomg'irlar ostida topdilar zavol  
Navoiy va Bobur – bor ko'ch-ko'ronim.

Qistovning zo'ridan shoshganim ko'yi,  
Ogoh qilolmadim yozib xat-xabar.  
Endi sovqotadi bunda qish bo'yi,  
Mirzo, Ma'murjondan qolgan maktublar.

## VIDO

Qo'y, endi bu gullar meniki emas,  
Yotga aylanganim qalbim tuyadi.  
Agar uzmoq bo'lib qo'l cho'zdimmi, bas,  
Kaftlarim jizillab kuyadi.

Men qushman, rozi bo'l, janubga oqsam...  
Qaragin, osmon ham qovoq uyadi.  
Endi men don tergan yerlarga boqsam,  
Ko'zlarim gavhari kuyadi.

Ketaman, zaminda ivirsirkan kuz,  
Bog'larning boshidan olov quyadi.  
Beshafqat bir o'tda yonar dala-tuz,  
Tushsam, oyoqlarim kuyadi.

Angladim, ko'kda ham kun yo'q endi hech,  
Bilmadim, bu osmon kimni suyadi.  
Yellarga to'sh ursam xoh kunduz, xoh kech  
Qanotim qovjirab kuyadi.

## TASKIN

Bugun, o't qo'yganda o'ziga bahor  
Ma'yus xazonlarni tushunmay qoldim:  
Bilsangiz, bu yorug' dunyoga ilk bor  
Kelganman, chamasi besh yuz yil oldin.

Unda ham shu quyosh chiqar edi jim,  
Oy sochin tarardi tunlari bedor.  
Men esa bor-yo'g'i bir maysa edim,  
Mitti nihol edi manovi chinor.

Navoiy qon yig'lab o'qirkan g'azal...  
Esimda qolmagan undan uyog'i,  
Chunki ezgan edi meni shu mahal,  
Boyqaro choptirgan otning tuyog'i.

Shundan xazonlarga tilimda bir zor:  
Munchalar g'aribsiz, munchalar yupun?  
Axir men bu yorug' dunyoga ilk bor  
Kelganman dedim-ku, besh yuz yil burun.

\* \* \*

Men seni bog'larga tashlab ketgandim,  
Tashlab ketgan edim seni gullarga.  
Qaytsam, kuz bog'larda kezar edi jim,  
Tabiatni ko'mib oltin-u zarga.

Angladim, bu vaqtga aldangan bari,  
Sotilib ketgandir bari oltinga.  
Sariq zarboflarda sollangan pari,  
Aytaqol, arzimni aytayin kimga?

Kimga aytay endi ertak – so'zimni,  
Ey, vaqtga aldangan sohir alanga?!  
Kuydirib yuragim, ko'nglim, ko'zimni,  
Daraxtlar boshingdan socharkan tanga.

\* \* \*

Ko'rasan, bir kuni yo'llar tugaydi,  
Bir kun atirgulday ochiladi sir.  
Ehtimol, turnalar qaytayotgan payti  
Oh tortib yuborar da'atan kimdir.

Kimdir aytajakdir bor haqiqatni,  
Kulguni unutgan ko'zlarida yosh.  
Shu lahza jalb qilib butun diqqatni,  
Mo'min musulmonlar ko'taradi bosh.

## YOZ

*Akam SIROJIDDIN xotirasiga*

### 1

Voh, bugun men yana aqldan ozdim;  
Yana xuruj qildi yozish kasali  
Va nimaiki yozsam, sen haqda yozdim,  
Yorug' yoz, esimda turibsan hali.

### 2

Qir-u dov-daraxtni ko'markan zarga  
Termuldim – tillosi ko'zimni oldi.  
Shunda deng, shamollar aylabon zarda  
Boshda hush, jismimda jonim yo'qoldi.

O'zimga keltirdi izzi-chuv, yig'i...  
Boladay aldabdi meni bu asad:  
Ko'ngliga botmasin, deb hijron tig'i,  
Ketibdi ko'zimni qilib shamg'alat.

Lovillab yonardi atrof, dala-tuz,  
Ham tig'dor tog'larning asiri – qishloq,  
Bor butun dunyoga o't qo'ygan, ey, kuz,  
Kel, endi meni ham gulxaningda yoq.

### 3

Bir kuni shashtidan tushdi-da quyosh,  
Ich-ichdan sovgota boshladim birdan.

Hech kimsa ko'rmadi ko'zlarimda yosh,  
Qo'rg'oshin o'ylarga bas keldim bir dam.

Jeztirnoq shamollar bilmay aslo tin,  
Jami tiriklikning ustidan kuldi.  
So'ng munis egachim – majnuntollarning  
Ma'yus sochlarini bittalab yuldi.

Kimsasiz qirlarga termuldim mustar:  
Dunyo ham, umr ham g'arib, bema'ni.  
Uchib o'tdi shunda tolmas turnalar  
Yana bir bahorni olib ketgani.

4

Kechalar xobgohga kirib bir ayol  
Ajinlar sanaydi ko'zguga boqib.  
Yozda nur taragan bog'dagi nihol,  
Ko'nglimni isitar o'zini yoqib.

5

Xomush xayollarim to'zg'itib shamol,  
Ehtimol, o'zicha boshim silaydi.  
Asli ko'nglim uchun bo'lib xafahol,  
Mening yuragimga sabr tilaydi.

Sen meni kimlarga tashlab ketding, yoz,  
Kimlarga ishonding sirdosh do'stingni?  
Menday bir bo'shangedan bo'lganda xalos,  
Aytgil, cho'kayotgan ko'ngling o'sdimi?



6

Bir yil umr ko'rdi bu yerda motam,  
Ayol tushlarida tebratdi beshik.

Keyin:

“Endi o'zing javobim ber, o, qodir Egam...”  
Sekingina tashqaridan qulflandi eshik.

Sovqotadi keng falakda uch mitti yulduz,  
Simyog'ochlar chalib turar hazin-hazin kuy.  
Necha yilki Qo'shrabotga kelar ekan kuz,  
Tashqarida qolayotir yalang'och bir uy.

7

Buncha tez yo'qotdim, dunyo buncha jo'n,  
Deyman-u chidayman bari-bariga  
Va she'rlar yozaman ne uchundir so'ng  
Xazonrez faslning ohanglarida.

Yo'qotish odatim bo'lgan har qachon,  
Buni hech kimsadan saqlamayman sir.  
Uzilib yelkamga tushgan har xazon  
Yurak-yuragimni titratib og'rir.

8

Dunyo ishlariga idrokim yetmay,  
Atrof-javonibga boqaman karaxt:  
Shunda ko'z oldimda uyalmay-netmay,  
Nega yechinyapti axir bu daraxt?..

Yomg'irlar ostida yurarkanman jim,  
O'shal savolimni qaytaraman boz:  
Quyoshim, sen meni kimga ishonding,  
Ayt, qanday kunlarga tashlab ketding, yoz?!

### LATIFA

Bu gal ham ishonib qattiq aldandim,  
Oltin deb tutganim yana mis chiqdi.  
Xayriyat, ko'rmadi begona hech kim,  
O'zimning eshagim o'zimni yiqdi.

Yurgandi yantoqmi, shuvoq kemirib...  
Baland oxurlardan yemishlar yebdi,  
Ko'zimni shamg'alat etib, semirib,  
Eshakligin qildi – o'xshatib tepdi.

Bardoshim tugadi, bas, sabrim to'ldi,  
Alvido, ey mening sobiq yo'ldoshim.  
Endi ot olaman, ne bo'lsa bo'ldi,  
Qayda yorilmagan axir bu boshim.

## UMR

Tetapoya bo'lib, qaddingni tutib,  
Gurpak tuproqlarga botding, belanding.  
To'ylarda – oldindan yutqizib, yutib,  
Kimlarni elading, kimdan elanding.

Bugun sen yo'limga esh emas, elmas.  
Bugun bosh saraklab seni o'ylagum.  
Yuvib kiymoqlik ham qo'limdan kelmas,  
Mening bolaligim – alvon ko'ylagim.

Kiya-kiya kir qildim seni.

Uloqda duldullar chopdi pishqirib,  
Davralarga kirding, dadil ot solding.  
Boricha talading, tortding. Ishqilib,  
Kattami-kichikmi solimlar olding.

Va bugun vujudim shamolmas, yelmas,  
Bugun ko'pkariga chetdan bo'ylagum,  
Yangisin tikmoqlik qo'limdan kelmas,  
Yoshlik – mening yirtiq-yamoq ko'ylagim...

Kiyib-kiyib ko'nartdim seni.

## FALOKAT

*Sobirga*

1

O'zingdan o'tgani o'zingga ayon:  
Hech kimga ko'rinmas dilning kuyigi.  
Bir kun ichida aylandik giryon,  
Bir tog'ning ikkita kiyigi.

2

Dodxohingning ko'zi qonlarga to'lsa,  
Kimlarga aytasan dodingni, Sobir.  
Avliyomi, valiy, kim qo'ygan bo'lsa,  
Bilib qo'ygan ekan otingni, Sobir.

Shaharning shovqini sig'maydi she'rga,  
Bilmaysan oyog'ing hatto kim bosdi.  
Ignani tashlasang tushmaydi yerga,  
Ko'zga ko'rinmaydi oyoqning osti.

Ko'klarga sochildi ko'zingdagi nur,  
Bilmading nima gap poyingda, pastda.  
Gar igna tashlasang yerga tushmaydur,  
Lekin odam axir igna emas-da...

3

Armon, attanglaring bilmas endi had,  
Baribir tishingni tishga bos, chida.  
Hech qachon falakdan tutmas falokat,  
Falokat doimo oyoq ostida.

Tuproqqa teng bo'lib ketgan burda non,  
Bitta so'z, bitta she'r va bir qatim nur.  
Xo'rlangan adolat, toptalgan iymon,  
Hammasi, hammasi falokat erur.

Falokatning esa oyog'i olti,  
Qo'llari qirqtadir, dumlari qirq ming.  
Lekin ayt, kim seni bu yo'lga soldi,  
Oqibat bu yo'lda nimani bosding?

4

Dodxohingning ko'zi qonlarga to'lsa,  
Kimlarga aytasan dodingni, Sobir.  
Avliyomi, valiy, kim qo'ygan bo'lsa,  
Bilib qo'ygan ekan otingni, Sobir.

Savollar xotirga sanchilgan xanjar,  
Og'riqdan javobin aytmoqqa shaysan.  
Falokat ming-milyon bo'g'inli ajdar,  
Qayerini bosding, o'zing bilmaysan.

Savollar kalxatday aylanadi xo'p,  
Biz esa kiyikmiz, biz esa qumri.  
Sening topganingdan yo'qotganing ko'p,  
Ayniqsa, qilichday yigitning umri...

5

Hali ham tun-u kun imlaydi samo  
Va lekin falakka yetmaydi doding.  
Qanotga aylanmas qo'llaring aslo,  
Oyoqning izmida hamon hayoting...

\* \* \*

U yashayveradi hech narsa demay,  
Toshdan yaralmagan boshini o'ylab.  
Mening-chi, murosa qo'limdan kelmay,  
Ketdim, tog'-toshlarga bosh olib, o'ynab.

Baxtiga sen borsan – u qulab ketmas,  
Bir qop laqqa go'shtni turibsan suyab.  
Va u yotib olib sharmanda etmas,  
Ming qatla xayriyat, mavjudsan suyak.

Yo'qsa, u egilib o'tardi mangu,  
Uni kechirmasdi pichoq – beomon.  
Men unga hech qachon tig' urmayman-u,  
Faqat bor umidim sendan ustixon.

## CHORI AVAZ MARSİYASI

Qora ko'rdim – qimirlar,  
Karvon ekan, imillar.  
Turib-turib tuyqusdan  
Sezimlarim simillar.

Sarbon suzib boradur,  
Bo'ta bo'zlab boradur.  
Og'ir karvon qaysi bir  
Yurtni ko'zlab boradur.

Ajal – hurib chopgan it,  
Do'st karvonin topgan it.  
Tuyaning ustidagi  
Kambag'alni qopgan it.

Yo'q yo'ndirdi, topdi gul,  
Bor borin sochdi butkul.  
Ko'hna dunyo, bilsang, ayt,  
Shoir umri necha pul?

Ming-ming yulduz berdi nur,  
Bulut boshdan quydi dur.  
Kuz edi – dov-daraxtlar,  
Bor-budun to'kdi, bir ko'r.

Oftob oltin otdi, oh,  
Tunlar tillo to'kdi moh.  
Bilsang ayt, bir yigitning  
Umri necha pul, jarroh?

Dod dodxohga yetmadi,  
Ko'zimdan nam ketmadi.  
Kuz boyligi g'aribning  
Ko'nglin obod etmadi.

Sarbon so'zlab qaytadur,  
Bo'ta bo'zlab qaytadur.  
Og'ir karvon G'uzorday  
Yurtni ko'zlab qaytadur.

Keksa-yoshga yoqqan do'st,  
Quyoshga tik boqqan do'st.  
Og'zi oshga yetganda  
Burnidan qon oqqan do'st.



## MEN YETGAN HAQIQAT

Qay kun chiqib ketding shamolday shosha,  
Izladim bilmasdan tinim nima ul.  
Qidirdim qishloqlar, shaharlar osha,  
Lekin hech ko'rinish bermading shu-shu.

Ko'klarga uchdingmi, kirdingmi yerga,  
Seni topolmadim – bu dunyo qat-qat.  
Charchagan chog'imda suyandim she'rga,  
So'ng seni izlamay qo'ydim, haqiqat.

Va shunda men senga yetdim-u birdan  
Tugadi ilonday eshilgan yo'lim:  
Angladim, ming bora uzangan bilan  
Baribir falakka yetmaydi qo'lim.

\* \* \*

Yana tuman tushdi namchil bog'larga,  
Ko'zlardan yashrindi atrof-javonib.  
Aldandim men o'ttiz ikkinchi marta  
Bu shum shamollarga qattiq ishonib.

Endi kuz, shafqat yo'q har qancha tilan,  
Ul ma'yus shamollar shamshirdir, o'qdir.  
Bahorni sirqirab sog'ingan bilan  
Borib ko'rmoqlikning iloji yo'qdir.

## XO'RSINIQ

*Kuzak shamollari esdilar yana...*

**Abdulla Oripov**

Yoz baxmal bog'larga berar ekan zeb,  
Jimgina yashardim o'z hayotimni  
Va shunda tuyqudan kimdir Ravshan deb,  
Parchalab tashladi fikr-u yodimni.  
To'xtadim ichimga yutib nafasim,  
So'ng tin olib boqdim sog'-u so'limga:  
Yuzimga urildi ipakday nasim,  
Xazonlar duvillab tushdi yo'limga.  
Ko'rmadim atrofga boqib hech kimni,  
Shunda deng tilimda aylandi savol:  
Keldingmi, shiyponda belanchagimni  
Tebratib turgan ey, enaga shamol?  
Keldingmi, alqay deb butun yoz bo'yi  
Issiqdan dimiqqan jon-u jismimni?  
Ayt, axir senmisan titratgan ko'yi  
Shivirlab talaffuz etgan ismimni?  
Ayt, axir senmasmi bittalab uzib,  
Poyimga xazonlar tashlagan oqsoch?  
Ko'nglimning muhtasham qasrini buzib,  
Vayronalaridan yasagan taxt, toj?  
Men seni tanidim, axir tanidim,  
Qaragin, esimdan chiqmabsan hali:  
Surnay-sibizg'alar chalib berarding

Onam paxtazorga kirgan mahali.  
Qilay deb shaharni bir bor tomosha,  
Tasodif – turibsan tinglab dodimni.  
Kelibsan adashmay oy, yillar osha,  
Yana unutibsan, qara, otimni.  
Men esa orzuning quli, qirol  
O‘zimda emasdir inon-ixtiyor:  
Tashlab ketolmasman shaharni xoli,  
Yiroq yo‘llaringga boqdim intizor.  
Kun botar yoqlarga nazar soldim lol.  
Kel, yana bir marta baxsh etgil orom,  
Kel, yana bir bora ko‘nglima yo‘l sol.  
Men seni o‘ng ko‘zim bilan sog‘indim,  
Sog‘indim bilsang gar jism-u jon bilan.  
Kel, endi qoshimga til tishlamay jim,  
Hech qursa sochingni silay, deb tilan.  
Charx urdi bahorning qushlari ming-ming,  
Qishlarning qilichi damimni kesdi.  
Faqat birgina sen, bir sen kelmading.  
Boshi berk yo‘llarda kezib darbadar,  
Topmay ketgandursan meni, ehtimol.  
Kutolmagan bo‘lsam qay shom-u sahar,  
Bir qoshiq qonimdan kecha qol, shamol.  
Bugun gavhar topgan gadodirman, o,  
Shodlik – shovqinimga ozgina chida.  
Gohida tuproqday saxiysan, dunyo.  
Dunyo, sen qirrador tohsan gohida.  
Ey tillo shamolim, yurgan yo‘lingda

Yana mening uchun ertaklar to'qi.  
O'qi va xulosa qilib o'zingcha  
Saboq ber yo'l qo'ygan xatolarimdan  
Va keyin tik qarab yuzim, ko'zimga  
Dadil ayt: yashashni o'rganay kimdan?  
Ipak qo'l enagam, sen bu tuproqda  
Bunchalar mangusan, bunchalar boqiy.  
Kel endi ichimga gulxanlar yoqa  
Loaqal bir marta bo'laqol soqiy.  
Aytgil, yodingdami yomg'ir-u qor – nam,  
Bir go'dak paxtazor aro loy kechdi.  
Sershoxa g'o'zalar uning shundoq ham  
Yupun ust-boshini yulqidi, yechdi.  
O'choqlar ustidan og'u sepganda,  
Vatanga oq oltin kerakdir, dedim.  
Dunyo bolalari koptok tepganda,  
O'sha paxta tergan bola – men edim.  
Kun kelib, qovrilib yana yog'iga  
Yozganda ilk bora sevgi xatini.  
Duch kelib raisning qosh-qovog'iga  
Paxtaga alishdi muhabbatini.  
Sen uning sochida silading taroq,  
Men na ko'ngil so'radim, na bir so'z dedim:  
Ayt, o'zin ovutar qandayin ahmoq –  
Axir, o'sha yigit – men o'zim edim.  
Paxta bu – o'zbekning taqdiri ekan,  
Salqin saharlarda titrab misli sham,  
Qaysidir egatda oq oltin tergan

Bugun yostig'imga bosh qo'ygan oy ham.  
Bugun ul teng-to'shlar baxtdan bearmon  
She'r o'qib sha'nini ko'msa olqishga,  
Men esa bir chetda bechora, beshon,  
Xo'rsinib bosaman tishimni tishga.  
Xayyom xayollarim cholday charchoq, o,  
Qoshg'ariy tillarim yalang'och, yarim,  
O'ttiz bahor ko'rmay tushdi, vo Xudo,  
Mening Manguberdi, Temur tishlarim.  
Ichimni it kabi kemirar g'amim,  
Ishqilib, yurakdan qoldimikan, ay  
Agar she'rlar yozsam, har gal allakim  
Ruhimda sel bo'lib chalaverar nay.  
Ko'zim gavhariga gilam to'shar gard,  
Torobiy qudratim yuluq, yarimta.  
Ibn Sino tibda qayd etmagan dard  
Simobday sirqirar suyaklarimda.  
Agar kim so'zimga qovog'in uysa,  
Qovoq unikidir, nimayam derdim.  
Ul baxti bekamlar bolasin suysa,  
Men sho'rlik to'ng'ichim tuproqqa berdim.  
Shukurki, toleda yondi boz chiroq:  
Har tugul, har tugul yorishdi yuzim –  
Sen mahkam bo'l, illo, yo'limiz yiroq,  
Yuzimni yerlarga qaratma, qizim!  
Ey, kuzak shamoli andak hasratim  
Aytdim, og'ushingga ol meni, mana.  
Shuncha yil boshimni omon asradim,

Kel, endi sochimning oqini sana...  
Yoz barqut bog'larga berar ekan zeb,  
Yashardim jimgina o'z hayotimni  
Va shunda tuyqusdan kimdir Ravshan deb,  
Parchalab tashladi fikr-u yodimni...

\* \* \*

Kim dedi "hangoma", kim dedi "suhbat":  
Kimni g'iybat qildim, kimgadir tuhmat.  
Birovni yer qildim, birovni hurmat,  
Nimaiki qilsam qildim-u, lekin  
O'zimga xiyonat qilmadim faqat.

Dunyoni bir tutam ayladim ba'zan;  
So'z berdim, aldasam ursin deb qasam.  
Nimaiki aytsam, Vallohu a'lam,  
Ko'rganimni aytdim, ne qilsam qildim,  
Ko'zimga xiyonat qilmadim faqat.

O'zimni qiynadim, yurakni siqdim,  
So'ng tog'ni mengardim, devorni yiqdim –  
O'lsam ham so'zimning ustidan chiqdim.  
Nimaiki qilsam qildim-u, lekin  
So'zimga xiyonat qilmadim faqat.

## KUZ

Ko'rmadim sen kabi xayolkash qizni...  
Shoshib borarkansan bezovta, yupun,  
Yashirib yo'llarga to'kilgan izni  
Bosib kela boshlar qo'rqinchli bir tun.

Ana, xazonlarga o't qo'yib, dilgir,  
Bog' aro shoshilib ketayapsan jim.  
To'xta, so'rog'imga javob bergin bir,  
Bir meni ko'nglingga yaqin ol, singlim.

O'zingni ko'rmayman, atrofga boqib,  
Nafas olishingni tuyaman, xolos.  
Shunda shabadalar o'ynab, uloqib,  
Shivirlay boshlaydi shoirlarga xos.

Ammo anglamayman sho'rlik shamolni,  
Faqat tushunaman: nimadir muhim.  
Shu lahza parchalab tashlab xayolni,  
Xazonlarni bosib o'tar allakim.

Keyin ko'k yuziga tortadi qora,  
Yulduzlar yo'qolur va sen ham ba'zan  
Yo pana-panada yoki oshkora  
Hech narsa demasdan yig'lab olasan.

Keyin tong keladi olis-olisdan,  
Quyosh ham chiqadi junjikib, jimjit.  
Dunyo dunyo bo'lib sen o'ychan qizdan  
Bir so'z ololmagan bironta yigit!

Kelasan, ketasan hech narsa demay,  
Hamrohing xotira, dugonang – xayol.  
Necha bor men sening g'amingni yemay,  
Baribir, baribir qolaverdim lol.

So'ng esa she'r qildim shamolday yelib,  
Bargday titragan shu hayajon, hisni.  
Vo darig', vo Xudo, dunyoga kelib,  
Ko'rmadim sen kabi xayolkash qizni.

\* \* \*

Besamar lahzalar qiynagan payti  
Qayrilib qarayman,  
Ortimda iz yo'q.  
Yillarni oralab ketyapman daydib  
Misoli shunchaki uzilgan bir o'q!



\* \* \*

Qirlarning to'shida eriyotir qor,  
Termulib qor kabi eriydir ko'zim.  
Horimay, sog'-omon keldingmi, bahor,  
Keldingmi, qadami qutlug', Navro'zim?

Entikib chopishdan charchamas sabo,  
Yam-yashil nasimlar yotibdi to'zib.  
Yana yoshligingga qaytdingmi, dunyo,  
Qaytdingmi dunyoga yana, Navro'zim?

Poyimga poyandoz bo'lgan gul-chechak,  
Seni ko'zlarimga surtayin o'zim.  
Keldingmi, qo'rqmasdan, botir boychechak,  
Rostdan ham keldingmi axir, Navro'zim?

Tilga kirayotir har bog', har og'och,  
Endi men ichimga yutayin so'zim.  
Qaytganing, ishqilib, rostmi, qaldirg'och,  
Aytaqol, tashrifing chinmi, Navro'zim?

## TUGANMAS ERTAK

*“Qafasni ko‘tarib uchsa bo‘ladi...”*

**Shavkat RAHMON**

Yuragim – qanoti chiqqan polapon,  
Tiniq tilaklari qayrilib yomon,  
Bo‘lib ko‘p berahm, bo‘lib beomon,  
Men – hayotsevarga hovuchlatdi jon.  
Endi tor kelibmi ko‘kragim – qafas,  
Yo oshno bo‘libmi hayajon, havas,  
Qilibmi o‘zicha parvozlarga qasd,  
Bermadi halovat, tinchlik bir nafas.  
U bildi: olamda osmonlar bordir  
Va unda uchganlar shod-baxtiyordir,  
U uchmoq istaydi, ichim-chi, tordir,  
Shundan qush o‘yladi: dunyo ozordir,  
Orzu-umidimning bari bekordir.  
Men uni qandaylar ovutayin, o,  
Orzusi, umidi bo‘lsa bedavo,  
U uchmoq istaydi, istaydi, ammo  
Ko‘kragimda unga yetsaydi havo.  
Bu mustar qushimga ichim achiydi...  
Mana, ko‘kaylarim ilidi, iydi,  
Qush tindi, “to‘nini teskari kiydi”,  
Holidan bir xabar olsam, qaniydi.  
Qaniydi, ashula aytganimcha sho‘x,  
So‘ngan umidiga sola olsam cho‘g‘,

Qushginam, ko'krakni ochar zamon yo'q.  
Bir qanot qoqib so'ng tingan polapon,  
Bag'rim bog'larini aylading payhon,  
Qoshingda turibman hol so'rab, hayron  
Men faqir fuqaro, sen hazrat, xoqon,  
So'yla irodangda qovrildi-ku jon.  
Ruhingni sindirgan qay Shirin, Layli,  
Yo sog'intirdimi samolar sayli,  
Yoki zo'r keldimi zamonning zayli,  
Aytgan tushkunliging, ayt endi, mayli.  
Ko'klarni ko'zlagan umid-orzuim,  
Yomg'irlardan yolg'iz panohim, uyim,  
Qo'ng'iroq-qo'ng'iroq, qo'shig'im, kuyim,  
Ne uchun muk tushib yig'lading yum-yum?!  
Ey, mening bori yo'q, amal-a'molim,  
Dunyoni sayr etgan xotir-xayolim,  
Toylarni toldirgan shiddat-shamolim,  
Nega o'yga botding, ne kechdi holing?!  
Qushginam, bir muddat rostlab nafasni,  
Ayt, boshing band qilgan hoy-u havasni,  
Ko'ksimdagi osmon – orzular pastmi?  
Oromimni olgan bezovta tushim,  
Bezovta tush sabab uchgan es-hushim,  
Ko'ksimni yorolmay tinchigan mushtim,  
Ko'krak – qafasdagi qushim,  
Bir ertak tinglashga kelarmi hushing?!  
“Qadim nazm bog'ida hushxon bulbul bor edi.  
Ko'p yorug' niyatlarga hamnafas, hamkor edi,

Mehrda barchaga teng – yerday xokisor edi  
Va lekin o‘zi bitta mehribonga zor edi.  
Shul sababki ul qushning ko‘zlari ko‘p nam bo‘ldi,  
So‘ng zolim zamon ichra o‘zi chiroq, sham bo‘ldi,  
Yog‘dusiga yer qolib, chirqaychalar jam bo‘ldi.  
Xushbo‘y deb suysa gulni, undan yomon is chiqdi,  
Tillo topdim deganda tutganlari mis chiqdi,  
Vo darig‘, dil uyidan bir tong shubha – iz chiqdi.  
U shunday dildan ishonch – tillosini yo‘qotdi,  
O‘g‘rilarga o‘zicha she‘rlar aytib o‘q otdi,  
Do‘stni eslab ko‘nglida yorug‘-yorug‘ tong otdi  
Va lekin tillosini do‘stning uyidan topdi.  
Do‘stlarning do‘stligi chiqarkan yolg‘on,  
Vafo shevasiga qilgancha gumon,  
Yana do‘st oldida nom olib yomon,  
Bo‘lsa ham notavon, bo‘lsa ham nodon,  
Ko‘ksida saqladi insof-u imon.  
U baribir diliga ezgu-niyatlar tugdi,  
Agar kimnidir suysa, astoydil va chin suydi,  
Shu muhabbat tufayli ko‘ngli ko‘p bora kuydi.  
So‘ng zinhor ul bulbulning ko‘zlari nam bo‘lmadi,  
Ko‘klarga yetgan boshi hech qachon xam bo‘lmadi,  
Ne kechsa ich-ichida, yuzida g‘am bo‘lmadi.  
O‘zini er bilsa u o‘zgalarni sher bildi,  
El-ulusning oldida qadrin tuproq, yer bildi,  
Qarg‘alar g‘iybat bilsa u qo‘shig‘-u she‘r bildi.  
Mehri kelib kuylasa, og‘ir-yengil, yel bo‘ldi,  
Qahri kelib kuylasa, bag‘ritoshlar sel bo‘ldi,

G'iybatdan bo'shamagan g'animlar ham el bo'ldi.  
She'ri-chi, uyqudagi dunyolarga bong berdi,  
Tun ichra qolganlarga oppoq-oppoq tong berdi,  
Kimligin bilmaslarga sezim, aql, ong berdi.  
Aldov olovida kuysa-da ko'ngil,  
Ishonchlari sinib, bo'lsa ham chil-chil,  
Kuygan ko'ngil bilan yana astoydil,  
Xasta ishonch bilan mudom-muttasil,  
Zohir qilganicha yuzda tabassum,  
Kuyladi, kuyladi, kuyladi ma'sum.  
Kelgum, deb visolga kelmasidan yor,  
Oshiq, yuragiga berganda ozor,  
Bu holni kimlardir qilganicha bozor  
Mayda gap-so'zlardan qursalar ham dor,  
Kuyladi, kuyladi, kuyladi takror.  
Zolim zamonini titratib zor-zor.  
Tunlar ko'zlariga uyqu inmadi,  
To'g'risi, nimadir – uyqu bilmadi,  
Dovul-dolg'ada ham sira sinmadi,  
Kuylashdan tinmadi, aslo tinmadi.  
Boshidan yomg'irlar yog'ayotgan payti,  
Boshida yulduzlar yonayotgan payti,  
Otalar bolasidan tonayotgan payti,  
Yesirlar yuragi qopayotgan payti,  
U mustar, mung'ayib munojot aytdi.  
Bundan-chi, sayyodlar fikr oldilar,  
Qo'rqib joylarida qotib qoldilar,  
Keyin jam bo'lishib o'yga toldilar

Va oltin qafasga bir gul soldilar.  
Qush esa tez yetib gulning qoshiga,  
Boqib yuzidagi shabnam – yoshiga,  
So‘radi ne kunlar tushmish boshiga.  
Yerdan sado chiqdi, u gul-chi, besas,  
Ko‘kdan sado keldi, u-chi, benafas,  
Turdi, turaverdi beso‘z, behavas.  
Bulbul chidamasdan uchdi-ya chapdast,  
So‘ng yana zamanga bo‘ldi chappa-rost, –  
Uning boshlarida osmon edi past,  
Uni og‘ushiga olgandi qafas.  
Sayyodlar dediki: “Bizlar Sul-ton, Shoh,  
Haqni sindirgaymiz temir bo‘lsa xoh,  
Faqat hayotimiz mazmunsizdir, oh,  
Sen qo‘shiq-lar aytib, bo‘lgan-cha maddoh,  
Ozurda jonimiz ovutgin goh-goh.  
Ovozing ko‘p yaxshi, tiling so‘zga boy,  
Yana bevafodir sen suygan ul oy,  
Endi yashashingga eng pokiza joy –  
Mana shu serjilo, serhasham saroy,  
Tez kunda ko‘nikib qolgung, hoynahoy”.  
Kunlar ham o‘tdilar takror va takror,  
Oltin qafasga ham kelsa-da bahor,  
Qush yashayverdi-ey osmoniga zor,  
Olis-olisdagi oshiyoniga zor.  
Sayyodlar xurram-u xursand yurdilar,  
O‘zlaricha davr-u davron surdilar  
Va mudom bulbulni xomush ko‘rdilar,

So'ng undan jam bo'lib ko'ngil so'rdilar:  
"Maqsading nimadir so'yla, ey bulbul,  
Jimsan-ku, yoningda barq ursa ham gul,  
Turishing bizga hech kelmadi ma'qul,  
Kuylab qalbimizdan alamlarni yul,  
Kuylab yuraklarni shod ayla butkul".  
Bu gapga qushchaning ko'kayi to'ndi,  
So'ng u "taqdirga ko'nikdi, ko'ndi" –  
Butun bo'yi basti ovozga do'ndi:  
"G'urbatda g'arib shodmon bo'lmas emish,  
El anga shafiq-u mehribon bo'lmas emish.  
Oltin qafas ichra gar qizil gul bitsa,  
Bulbulga tikandek oshiyon bo'lmas emish"...  
Yurak, fasldan so'ng fasllar kechdi,  
Asrlar ketidan asrlar kechdi,  
Yomonlar kechdilar, asllar kechdi,  
Vaqt barcha-barchasin suv kabi ichdi,  
Faqat qush zoriga zamonlar hechdir.  
Mana, boshda bahor – havo keladur,  
Havoga iylanib navo keladur,  
Bir mustar munojot – avo keladur.  
Qushginam, ashula aytganimcha sho'x,  
To'ngan umidingga sola olmay cho'g',  
Turibman so'zimda, ko'zlarimda o'q,  
Faqat bu ko'krakni ochar zamon yo'q.  
Aytgin, men qanday qib kiray ichimga,  
Kimga yolvorayin, suyanay kimga,  
Qay yo'sin orzular solay ko'ksimga?!

Baribir o'ksima, qushim, o'ksima!  
Bu hali bahordir, so'ng yoz keladi,  
O'ylaringga hamdard, hamroz keladi,  
Sho'x kuylar taratib sho'x soz keladi,  
Axir moziy to'lib ovoz keladi.  
Mening-chi, toshlardan yaralgan boshim,  
Umidlarim ulkan, og'irdir toshim,  
Turibman qaltirab ko'zlarda yoshim,  
Yuksak yulduzlarni sog'inar loshim,  
Qushim, qanotingga jamla bardoshing!

\* \* \*

Yoshlik meni tark etmay turib,  
Men yoshlikni tark etib ketdim,  
O'yin talab do'st-dushmanlarni  
Savollarga g'arq etib ketdim.

Muhabbati aqlimni oldi,  
Ichlarimga olovlar soldi.  
Ko'rmay bosdim tikonni mudom,  
Tuman bo'ldi ko'zimning oldi.



## QORONG'U TUN ERTAGI

Qayga yurarin bilmas yalangoyoq shamolning  
Manziliga yetolmay ahvoli ko'p tang-u tor:  
Olib ket deb, yo'lida nogahon duch kelsa kim  
Etagidan tortqilab, yuzlarin siypalar zor.

Qani, qayon ketdi u, dunyo qoldi xabarsiz...  
Ko'ngli ochiq osmonning – bulutdan yo'q nishona.  
Qo'rqqanga qo'sh ko'rinib misli mushtdaygina qiz  
Gul-giyohlar shivirlar: "Xoh ishon, xoh ishonma..."

Ajinalar aysh qilar pana-pastqam joylarda,  
Aqldan ozmasimdan xabar bergin, kim bor, hu-uv.  
Mening ko'zlarimga ham tun tortib qo'ymish parda  
Yuragimni o'ynatar kaftda huqqaboz – qo'rquv.

Hech kima so'z bermagich o'lguday o'jar-u o'r,  
Ko'pni ko'rgan chinorning o'y-u fikri ichida.  
Vahm polvon tog'ning ham yuziga tashlamish to'r,  
Ko'rinish beray desa, ishonmaydi kuchiga.

Faqat majnuntollarning chilvir sochlarin o'rib,  
Yulduzlarni titratib cho'miltirar pastda soy.  
Dashnabodning ko'p nordon anorlarin tush ko'rib,  
Qaylardadir uxlaydi boshqorong'i bo'lgan oy.

\* \* \*

Tog'larga qor tushdi. Endi qish yaqin...  
Qachon o'tib bo'ldi bahor bilan yoz?  
Bugun kuz to'laydi umrimning haqin –  
Xazonlar poyimga patak, poyandoz.  
Tog'larga qor tushdi. Endi qish yaqin.

Qachon o'tib bo'ldi bahor bilan yoz,  
Turnalar tepamda to'kadi vido.  
Turnalar safarin tezlaydi ayoq,  
Munchalar tovusday tuslanding, dunyo?  
Qachon o'tib bo'ldi bahor bilan yoz.

Bugun kuz to'laydi umrimning haqin,  
Holbuki tilloga teng emasdir u.  
Goh issiq, goh sovuq, goh chaqmoq-chaqin,  
Odamzod shu yo'sin aldanar mangu.  
Bugun kuz to'laydi umrimning haqin.

Xazonlar poyimga patak, poyandoz,  
Chambarak bo'ladi boshlarga yana,  
Ammo kuz lutfidan ketma-ket, boz-boz  
Tuproqday ich-ichdan titraydi tana.  
Xazonlar poyimga patak, poyandoz.

## JAMILANING SHE'RI

Oy balandda, balandda tig'dor tog'lar boshida,  
Jimirlaydi yuragim shul yangi oy qoshida.

Yuksakmiding, yulduzim, senga yetguncha oylar,  
Termulib soch tarar oy ko'zlarimning yoshiga.

Tilay-tilay topganim, tillo qizim, uxlagin,  
Baxtginang butun bo'lsin, illo, qizim, uxlagin.

Kelgan yo'llaring kabi sochlaring uzun bo'lsin,  
Moviy osmon misoli seryulduz bir tun bo'lsin.

Meni taqdir siylamadi ota-ona mehridan,  
Endi sening toleying bor bo'lsin, butun bo'lsin.

Tilay-tilay topganim tillo qizim, allayo,  
Izlaring yorug' kelsin, illo, qizim, allayo.

Uzun kipriklaringga qo'nsin uyqu qushlaring,  
Uxlab qolgin, Yulduzim, shirin bo'lsin tushlaring.

\* \* \*

*“Dada, qarang qush, qush uchyapti”,  
dedi hayrati ichiga sig‘may ikki yoshli  
Yulduz qizim qaychini ko‘rsatib.  
Bu uning hayotda birinchi o‘xshatishi...*

Bo‘g‘zimga tiqilib qoldi bir nima,  
Nimadir mijjamga keldi sizilib.  
Keyin xanjar kabi tig‘dor vahima  
Olamga otildi og‘zimni tilib:  
Qizim, ona qizim, ko‘p dono qizim,  
Tuf deyin qush tiling, guruch tishingga,  
Kelgin, hayratimning taftida isin,  
Jonim sadqa bo‘lsin o‘xshatishingga.  
Garchi qanoti yo‘q, oyog‘i yo‘qdir,  
Osmon desa garchi qizimas ichi,  
Qaychi bo‘lsa bo‘lar, ko‘nglim ko‘p to‘qdir,  
Qushga o‘xshar ekan baribir qaychi.  
Aqling menikidan bo‘lgaydir sara,  
Yo‘qsa qayda edi o‘ttiz yil bu xush?  
Rostdan ham nimasi bilandir qara,  
Qaychini eslatar axir har bir qush.  
Ilon ham, tovuq ham emasdi yiling,  
Baribir endi tar qolar surnaychi:  
Ohangga oshufta ilonning tilin  
Bir kuni sug‘urib uchadi qaychi.  
Qizim, omon qizim, ko‘p “yomon” qizim,  
Tuf sening qush tiling, guruch tishingga.  
Kelgin, hayratimning taftida isin,  
Jonim sadqa bo‘lsin o‘xshatishingga.

## BAHOR

To'polonchi shamol tinchidi, tindi.  
Uning sovuq sasin etgancha bekor, –  
Qarasang, ko'zlaring kuydirib endi  
Gulxanlar yoqmoqda qirlarda bahor.

Shabada shu o'tga urilib ketib,  
Qo'lini kuydirib yugurdi, yeldi.  
Bu qadim dunyoga chiroy baxsh etib,  
Qumursqa, qaldirg'och, kabutar keldi.

Keldi tabiatga mehnatkash bahor,  
Hammani bir mehr, bir ko'zda ko'rdi.  
Hattoki kamtarin, kamgap, o'gay qiz  
Majnuntolning sochin qaytadan o'rdi.

Qumloqmi, toshloqmi, ko'klamning mulki –  
Bugun odam yurmas yerlarda bahor.  
Yana avjga chiqdi o'yin-u kulgi,  
Dillarda, tillarda, she'rlarda bahor.

Qalbin varrak qilib uchirvorgan kim,  
Kim unga termulib parvoz etadi?  
Sodda dil, bag'ri keng, baxmal bahorim,  
O'yining barchaga birday yetadi.

Faqat hech sezdirmay, beso'z, befaryod,  
Ketib qolma tag'in bir tun yo nahor.  
Agar ketar bo'lsang meni ham uyg'ot,  
Meni ham o'zingga hamroh qil, bahor!

\* \* \*

Kuzakda makkadan bo'shagan paykal  
Qarovsiz erkakning soqollariday,  
Unda qon topshirib qarigan baytal,  
Poyani qirtishlar ko'zlarin ochmay.

Bolalar ko'nglini etganча vayron,  
Tushmagan barglarni duv-duv qoqarlar.  
Endi quyosh topmay serrayar hayron,  
Boshlari yulingan kungaboqarlar.

O'zini shoh sanab qir-u qiyoda,  
Baland qoyalardan joy izlar lochin.  
"Orom deganlari bormi dunyoda?"  
Erinchoq mezonlar yozar qulochin.

Qushlar uchib ketdi. Qoldi sukunat,  
Toklarning qo'ynida uxlaydi bahor.  
"Yetgandan bir enlik maktubing jo'nat..."  
Daraxtlar entikar, hah onaizor.

Rutubat kuyini tinglaydi dunyo,  
Tunlari sovqotar bu toshli tuproq.  
Sadoqat degani qani o'zi, oh,  
Huvillab qoldi-ku, tog' bag'ri. Biroq

Cho'qqilar boshiga yig'arkan bulut  
Shivirlab zaminni yupatar osmon:  
"Bosib kelayotgan vahmni unut,  
Bahorning manguga uxlashi yolg'on..."

\* \* \*

Tong yorishib qoldi. Hademay  
Quyosh nayza qadaydi ko'kka.  
Men qanchalik g'amini yemay,  
Tun baribir bormaydi ko'pga.

Tutmasin deb odamni xuni,  
Yashiraman shu haqiqatni.  
Tun bilmaydi bitganin kuni  
Va sanamas har daqiqani.

Shundan unga bo'laman dalda,  
Sochlarini silayman sekin.  
U bir qultum suv so'raganda,  
Azon yangrab qoladi lekin.

Qalqib ketar qo'limdagi suv,  
O'zgarar tun avzoyi, beti.  
Yuragiga tushadi qo'rquv,  
Uvishadi tuyqusdan eti.

Oshkor bo'lar olamga bu sir...  
Nafaslari keladi kunning:  
Qichqiradi xo'rozlar bir-bir,  
Oqaradi yuzlari tunning...

## ASKARNING SHE'RI

Dilga yoqar kuyning mahzun, mayini,  
Mug'anniy mung'ayib chalar nayini.  
Soqiyga so'z yo'qdir. Xayyomdan olib,  
To'xtamay, tinmayin maqtar mayini.

Ohubadan yellar sochimni tarar,  
Oy yo'lim yoritib ko'nqlimga qarar.  
Tog'dagi tuyg'usiz toshlar-da, hatto,  
Bir kun kelib, albat, kunimga yarar.

Yozning mehri menga haddan ziyoda,  
Kuz boshdan zar sochar poy-u piyoda.  
Qahraton qishlardan sovuq qotgan, deb,  
Bahor gulxan yoqar qir-u qiyoda.

Faqat birgina sen misli parizod –  
Dastingdan kimlarga qilay arzi dod:  
Dunyo menga poy-u patak bo'lganda  
Sen nega poyimdan chalding endi, bod?



## ONAIZOR

Kecha tush ko'rganmish, kelganmish birov,  
O'g'lidan o'zgaga izlamay ta'bir:  
"Erta tong pallasi kirib kelar-ov",  
Yarim tun uyida kuymanar kampir.

Borliq jim, yulduzlar saqlaydi sukut,  
Ona o'z-o'ziga so'zlab-pichirlab.  
Kenjasin kutmoqqa ko'rar taraddud,  
Axir tush o'ngidan kelsa, ne ajab.

Eshikdan kirganda o'g'liga ona,  
Albatta aytadi o'ng kelgan tushin.  
So'ng o'ylar: "Akasi, aka begona,  
Otasi bo'lsaydi bo'lmasdi ishi.

Qachon ketar ekan ertami indin,  
Qancha pul kerakdir uning yo'liga?  
Aytganidan ko'p yo oz berarmikan,  
Eh, o'zi ham qaram o'g'lin qo'liga..."

Borliq jim, yulduzlar saqlaydi sukut,  
Ona sog'inchini aytib pichirlab.  
Kenjasin kutmoqqa ko'rar taraddud  
Axir tush o'ngidan kelsa, ne ajab.

Kecha tush ko'rganmish – kelganmish birov...

\* \* \*

*“Devorning qulog‘i bor...”*

**Naql**

To‘g‘ri topding, men senga  
Dilimni hech yormadim.  
Haq deya bu dunyoda  
Sen-u menga bormadim.

Dunyoni qo‘y, cho‘ldagi  
Qamishning-da og‘zi bo‘sh.  
Shundan bilganimni  
Aytolmasam, netay, xo‘sh?

To‘g‘ri, do‘sti sodiqsan,  
Bunga aslo taraf yo‘q.  
Ammo shu fe‘lingga ham  
Menda maqtov, sharaf yo‘q.

Uyingda qamish-qiyov,  
Unmas garchi bahor, kuz.  
Boz ustiga ikkimiz  
O‘ltiribmiz yuzma-yuz.

Bilganimni aytsam gar  
Yurmay sarg‘aya, so‘la,  
Bo‘g‘zimdagi xanjardan  
Qutulardim bir yo‘la.

Aytsam anglaganimni  
To'lib dunyodagi kam,  
Bor shodliging o'rnini  
Egallaydi g'am-alam.

Shul bois aytmay desam  
Ko'nglingning g'ubori bor.  
Aytar bo'lsam, jon jo'ra,  
Uyingning devori bor.

\* \* \*

*"Nima olib kelasiz, dada?"*

### **Yulduzning savoli**

Endi barqut bog'larning olmasi oltin, qizim,  
O'ylasam bo'lasmidi chiqmasdan oldin, qizim.

Olma oltin bo'lsa gar sabog'i ham oltin-da,  
Kuz qo'ynida yaltirab bog' ko'rindi oldimda.

Oltin sabog' olmani uzib bo'lmas-ku, axir,  
Olma – olma, yerdagi giyoh, gulmas-ku, axir.

Aytsam bo'larkan ayang, sen, Charos ertagini,  
Eslab bir kulishardik huv, "Sholg'om" ertagini.

Endi kech, shu hislar-la ko'cha-ko'yda yelaman,  
Ko'ksim to'ldirib toza havo olib kelaman.

\* \* \*

*Yurtdoshim, marhum Ochil Qodirovga*

Olis-olislarda yig'lar Qo'shrabot,  
Eli qo'ychivonsiz qolar-ku bu yil.  
Xirmonda yaylovni sog'inadi ot,  
To'shiga botadi eskirgan ayil.

Olisda bag'rini tig'lar Qo'shrabot,  
Sokin dalalari yana ham jimjit.  
Faqat g'ingshigancha qaydadir bot-bot,  
Cho'zib uvlab qo'yar bo'ribosar it.

Daryo to'lqinlari suronli janggoh,  
Irganib yutar o'qlarni daydi.  
Kimdir po'rtanaga to'sh urar nogoh,  
Bu o'sha cho'ponga juda o'xshaydi.

Suzib borar ekan hammadan oldin,  
Qo'shiqlar aytadi mardonavor, shod.  
U aniq ishonar kun kelar oydin,  
Uning qo'shig'ini tinglar Qo'shrabot.

Olis-olislarda yig'lar Qo'shrabot.

\* \* \*

Yurtni so‘rab turgan shahanshohmiding,  
Tunni sutga chaygan malak-mohmiding,  
Ohular ko‘ksida ozor-ohmiding,  
Yor, sening vaslingga yetolmadim men.

Shohning odamligi yodiga yetdi:  
Iyib gadosining dodiga yetdi,  
Gado shoh bo‘ldi – murodiga yetdi,  
Bir sening vaslingga yetolmadim men.

Boshimdan oltinin sochdimi kun, o,  
Sim-siyoh sochimda bitdimi tun yo?  
Bildim, bir kam ekan besh kunlik dunyo,  
Yor, sening vaslingga yetolmadim men.

Alpomish Barchinning qoshiga yetdi,  
Yosuman Farhodning boshiga yetdi.  
Isming olgan qizim yoshiga yetdi,  
Bir sening vaslingga yetolmadim men.

\* \* \*

Kinga keragi bor tanti ko'ngilning,  
Yo'lovchi shamollar tinglamas aslo.  
Ularning sensiz ham tashvishi ming-ming,  
Sensiz ham sho'rliklar quvg'indi, gado.

Ishonib bo'lmaydi yulduzlarga ham –  
Tunlar quchog'ida yonadi faqat.  
Bog'larning boshidan yog'ilgan shabnam  
Bahorga nisbatan ming bor muvaqqat.

Fasllar bevafo, umr o'tkinchi,  
Do'stlaring xoindir, dushmaning nomard.  
Bilaman, yo'qolgan martning ham tinchi,  
Fevralday tark etar bir kun meni mart.

Bilaman, qolmadi endi biron sir,  
Qolmadi loaqal taskin ham deysan.  
Lekin to'lib ketgan dilni baribir  
Ishonging keladi kimgadir ba'zan.

\* \* \*

*“Nogoh o‘lar bo‘lsam – sen sabab”*

**Abdulla Oripov**

Sonsiz fojialar bisyor hayotda,  
Shahid ketganlarga guvoh – sag‘ana.  
Pushkin yiqilishi tushganda yodga,  
Zamon chirikligi qilar tantana.

Albat, har bir narsa o‘zicha haqdir...  
Lekin adolatga tarix ro‘para.  
Hayhot, Pushkin yoshin ko‘rmish taqdir,  
Lermontov ko‘nglida sezganda yara.

Garchi zamon gulgun, lek fojia bot –  
Diyonat zoriqsa qiymat-qadriga.  
Duelga chorlaydi ko‘tarib faryod,  
Uni otolmayman, u esa sayyod.

Nogoh yiqilaman men ham qabrga.

\* \* \*

Sen endi hech qachon ushalmas orzu,  
Sillamni quritgan unut farmonsan.  
Sen so'ngan umidsan, qirrador qayg'u,  
Alamsan, attangsan, afsus, armonsan...

Maylimi, endi bir ko'zguga boqib,  
Chehrai zardimga biroz achinsam:  
Boisi bag'rimni o'tlarga yoqib,  
Sen mening yuzimga tushgan ajinsan.

Labimdan sirg'alib singan tabassum,  
Ko'zimda jon saqlab turgan kulgumsan.  
Tashlab ketolmaysan loaqal bir zum,  
Sen bor-yo'q boyligim, bor-yo'q mulkimsan.

Tashlab ketolmaysan, tark etolmaysan,  
Manziling olisdir, yo'ling xatarnok.  
Qandaylar ketasan? Rostini aytsam,  
Sen mening sochimga oralagan oq.



\* \* \*

Gullasam har bahor gullagan edim,  
Yor deya sochimni yulmagan edim.  
Ammo Majnunga hech kulmagan edim,  
Sen mening ustimdan kulding, muhabbat.

Tun kabi sim-siyoh tor bo'ldi ko'nglim,  
Bir qatim shu'laga zor bo'ldi ko'nglim.  
Kimning qo'llarida xor bo'ldi ko'nglim,  
Sen mening ustimdan kulding, muhabbat.

Jon-u jahonimda zirqirar ming o'q,  
Dilning shul og'riqdan ayrilgisi yo'q.  
Ammo yorning sira qayrilgisi yo'q,  
Sen mening ustimdan kulding, muhabbat.

Malikalar ming marta qoqsa ham qoshin,  
Egmagan edim-ku bir bora boshim,  
Voh, qirqni qoralab qolganda yoshim,  
Sen mening ustimdan kulding, muhabbat.

\* \* \*

Bog'da bo'y sochib gullar,  
Rayhonlar-u jambillar,  
Kuyga to'lganda dillar,  
Kelib bir ko'rmadingiz.  
Bahor faqat sizni deb,  
Qir-adirga berib zeb,  
Borliqqa yoyganda sep,  
Kelib bir ko'rmadingiz.  
Olamga to'lganda nur,  
Tongda barglar taqib dur.  
Yelda sollandi masrur.  
Kelib bir ko'rmadingiz.  
Bahor o'tdi, yoz o'tdi,  
Nazokat-u noz o'tdi,  
Yoshlik – qaddi g'oz o'tdi.  
Kelib bir ko'rmadingiz.  
Ko'zlarda so'lganimni,  
Sog'inchga to'lganimni,  
Devona bo'lganimni  
Kelib bir ko'rmadingiz.  
Kelib bir ko'rmadingiz...

\* \* \*

Kelmasangiz, kelmang, mayliga,  
Zo'rimiz yo'q, zorimiz bordir.  
Chechanlikda sizday Layliga  
Teng kelar o'z yorimiz bordir.

Kelmasangiz, kelmang, so'ziga,  
Sodiq bo'lgan torimiz bordir.  
Yo'limizga intiq ko'ziga  
Surma surgan yorimiz bordir.

Kelmasangiz kelmang-e, sirli,  
Qo'limizda torimiz bordir.  
Qo'shiq qilib aytsa arzirli  
Qoshi kamon yorimiz bordir.

Kelmasangiz kelmang, el bilgan  
Zarimiz yo'q, zorimiz bordir.  
Mehrimizni to'tiyo qilgan  
Mehribon o'z yorimiz bordir.

\* \* \*

Yo'llarga termulib toldim,  
Ko'zimda qomat-qaddingiz,  
Oqibat mung'ayib qoldim:  
Yor, nega siz kelmadingiz?

Shamol yotdi, tonglar otdi,  
Takror umidim uyg'otdi.  
Ammo yo'l ko'zinga botdi,  
Yor, nega siz kelmadingiz?

Yo kimlardir qoshlar qoqib  
Ko'nglingizga qo'l soldimi,  
Yo biz kabi oshiqlarning  
Qadri yerlarda qoldimi?

Xohishingiz bo'ldimi tang,  
Sig'maydimi hech haddingiz?  
Qushlar ham keldi qaytadan,  
Yor, nega siz kelmadingiz?

Shul g'arib ko'nglimga qarab,  
Tollarning sochini tarab.  
Bahor keldi ming martalab,  
Yor, nega siz kelmadingiz?

Sog'inchimdan kuldi dunyo,  
Dunyo kulishdan toldimi?  
Bizday sodda oshiqlar yo  
Faqat she'rlarda qoldimi?

Yo'llarga termulib toldim...

## AYOL

Kuya-kuya kunchil yosuman,  
O'rtamizda bo'lganda tuman,  
Seni yaxshi ko'rdim, baribir,  
Sumbul sochli, ey, shirin suxan.

Yuzingni to'sganda paranji,  
Baribir, xoh ranjima-ranji,  
Seni yaxshi ko'rib yurdim men,  
Ey gullarning gavhari, ganji.

Tun qo'ynida yilt etgan bir sham  
Umidimga bo'lmasa ham shan,  
Seni yana yaxshi ko'rdim-ey,  
Mening ko'zim kun kabi ravshan.

Ammo hech boqmaysan chaqirsam,  
Yo ovozim yetmaymi – jimsan.  
Seni hamon yaxshi ko'rgumdir,  
Sen shu qadar ko'zga yaqinsan.

Yetgudaysan ko'lim cho'zsam, o,  
Bunga qaydin kuch topay ammo.  
Seni juda yaxshi ko'raman,  
Ey, zaminda qolgan hurliqo.

Nega holimni hech so'rmaysan,  
Ko'zinga boqib soch o'rmaysan.  
Seni yaxshi ko'raman mudom,  
Sen-chi, meni aslo ko'rmaysan.

## BU TUN

*Xurshid DAVRONga*

Tun. Manzaraga chiqdim tong kutib,  
Shovqin-suron tegdi jonimga.  
Bu odamlar yuragin yutib,  
Toza tashna qildi qonimga.

Tayyoralar bo'lganda kanda  
Qatorlarda o'tar pishqirib.  
Oddiy bir so'z bilan aytganda,  
Hamma tongga shoshar ishqilib.

Bilib-bilmay hatto o'zlari  
Saharlardan kutib shon-sharaf,  
Kelajakka shoshar yosh-qari,  
Shoshar tinmay oldinga qarab.

Tun-kun demay bechidam, betin,  
Bilmay orom, bilmay halovat,  
Yuguradi, yeydi ich-etin,  
Goh baxt ko'rar va goh talafot.

Men-chi, kuzday g'arib, benavo,  
Derazadan turardim boqib.  
Kelajakka qarab bir dunyo,  
Bitta daryo borardi oqib.

Ozod o'ylar sochlarin o'rdim,  
O, buncha do'ng xayollar arshi.  
Shunda nogoh bir shu'la ko'rdim,  
U borardi oqimga qarshi.

Shovqin-suron to'la dunyoda,  
Qo'llarida fonusi... yo, Rab.  
Faqat bir zot poy-u piyoda,  
Ketar edi o'tmishga qarab.

\* \* \*

Sizni ko'rib o'tlarda qolgan  
Jonimning ko'p g'amin yegansiz.  
Ammo dilga oshiyon solgan  
So'zingizni bilmas ekansiz.

Nigohingiz ko'klarga to'shab  
Oy-yulduzlar shohi degansiz.  
Asli oyni ko'rolgan o'shal  
Ko'zingizni bilmas ekansiz.

Xushlagaydir bilmagan-bilgan  
Siz shunchalar beko'st, bekamsiz:  
Dunyolarni ming bilgan bilan  
O'zingizni bilmas ekansiz.

## DO'NGBO'YIN

U aytdi: "Daxlim yo'q bundayin ishga,  
Mening hayotimga qo'shmagin zahar.  
Lekin tayyordurman mag'rur o'lishga,  
Bo'ynimga shu aybni qo'yib bersang gar..."

Ko'ngliga tor kelib bu yorug' jahon,  
Isbot talab qildi mendan besabr.  
O'limdan qo'rqmadi – hech qaysi zamon  
Gunohsiz odamni o'ldirmas axir.

U qasamlar ichdi bechidam, betin,  
Aldasam tepamda shohid deb Alloh.  
Gapiga ishonsa bo'lardi, lekin  
Unga o'xshar edi egasiz gunoh.

Dast kalta bo'lsa-da, bor edi chidam,  
Baribir ko'rsatib unga kuchimni.  
Bo'yniga qo'yaman dedim, o'lsam ham  
Yordamga chaqirmay turib hech kimni...

Ammo ko'zlab yurar hamon u ko'kni,  
Yashayapman hamon boshim quyida,  
Gunoh deb atalgan bu og'ir yukni  
Qo'yib berolmasdan baland bo'yniga.



\* \* \*

Kuz. Ko'kni tutarkan turna tizimi  
Kimsasiz bog'larda o'y surib yakka,  
Ovutganim kabi qimmat qizimni  
Men yana ertaklar aytdim yurakka.

Farhodning firog'in aytdim qaytadan,  
Shirinning shukuhin she'r qildim takror.  
Bilmadim, uchradim unga qaydanam,  
Yurak ham bo'lurmi shunchalar tang, tor.

Men nega ishondim bor-u birimni,  
Nechun do'st kirishdim sinamay-netmay?  
Agar tashlab ketsam butun sirimni,  
Dunyo bilib olar, voh, endi netay.

Netayin ko'nglingga qarayman shundan,  
Qo'ltig'idan olib bo'laman dalda.  
Ayniqsa, dunyoga kuz kelgan kundan  
Yashayman go'dakday yurakni aldab.

Ayniqsa, shamollar bog'larni silkib,  
Xazonlar duvillab to'kilgan payti.  
Tanida bir titroq qo'zg'alib ilkis,  
Ming yalin, ming yolvor – gapga kirmaydi.

Bugun ham unutib butun olamni,  
Yalang'och bog'larda o'y surib yakka.  
Ovutganim kabi beo'y bolamni  
Elanib ertaklar aytdim yurakka.

\* \* \*

Faqir bo'lsang, fuqaro bo'lsang,  
Yursang yirtiq to'ning yelkangda.  
Faqat sevging sabab qishda ham  
Harorating so'nmasa tanda.

Yuragingda ungan shu gulga  
Kecha-kunduz tarasang suvlar.  
Yashayversang umiding ulkan,  
O'zing oltin va o'zing zargar.

Yashayversang oyday bir qizga  
Bor-yo'g'ingni baxsh etib butkul.  
Toj-u taxtdan olis-olisda,  
O'zing podshoh hamda o'zing qul.

Ko'p seryamoq ersa-da to'ning,  
Butun bo'lsa senda iroda.  
Yashayversang orzung ming-ming,  
O'zing soqiy ham o'zing boda.

Yashayversang... va lekin bir kun,  
Xuddi haqqi bordayin, tikka.  
Kirib kelsa ko'nglingga dilxun,  
Amri vojib qaysar malika.

So'ng kun bo'yi ko'zingdan ketmay,  
Yuragingda sayr etib yursa.

Biron og'iz so'ramay-netmay,  
Avaylagan gulingdan kulsa.

Vujudingni bossa tahlika,  
Arzigaydir indamay o'lsang.  
Sevib qolsa seni malika,  
Sen-chi, faqir fuqaro bo'lsang.

\* \* \*

Bahordan gul uzolmadim, yor,  
Sochlaringga tuzolmadim, yor.  
Kuch topmadim, andishaning zo'r  
Devorini buzolmadim, yor.

Bahor esa tark etdi-ketdi,  
Chaqmoq ekan – yarq etdi-ketdi.  
Ko'zimni bir ochib-yumguncha  
Ko'z yoshiga g'arq etdi-ketdi.

Bu dunyodan bezaman endi,  
O'zimni ko'p ezaman endi.  
Shamol kabi dalli-devona  
Armon dashtin kezaman endi.

Asli bari o'zimdanda o'tar,  
Til bilmagan so'zimdanda o'tar.  
Shundan edi yuzingni yuvgan  
Daryo mening ko'zimdanda o'tar.

Bahordan gul uzolmadim, yor...

\* \* \*

Yuragimni yutib bu yerga kelsam,  
Dunyoni bosgandi sehrli sukut.  
Tonglarning muz kabi arvohi – yeldan  
O‘choqlar bag‘ridan o‘rlar edi dud.

Vulqon – vajohatin tishida tishlab,  
Sukutga cho‘mgandi bunda tog‘- u tosh.  
Faqat o‘z-o‘ziga ochganicha lab,  
Daraxtlar chayqardi bir maromda bosh.

Qushlar voqif aylab sirdan bir-birin,  
Ona tillarida so‘ylardi tam-tam.  
Bir mendan qizg‘onib dunyoning sirin,  
Shamollar yurardi tiliga mahkam.

Tunlari boshimda chiroqlar yoqib,  
Yulduzlar jimgina sochardilar zar.  
Yonimda gung daryo borardi oqib,  
Borardi toshyurak, tilsiz odamlar.

Dilim, bu sukutni uqdingmi, sen, xo‘sh?  
Dilim, ular shunga kelishgan, ko‘ngan  
Va ado bo‘lsin deb menday og‘zi bo‘sh,  
Shundayin sehrli sabrga do‘ngan.

Dilim, o, mening devona dilim,  
Bilmasang bilmabsan dunyoning dardin.

Qaragin, poyingda to'lg'onar bir yo'l,  
Qaragin, daraxtlar to'kyapti bargin.

Ko'rasan, bir kuni shu yo'l tugaydi,  
Bir kun atirgulday ochiladi sir.  
Ehtimol, turnalar qaytyotgan payti  
Og'riqdan oh tortib yuborar kimdir.

### KUZATISH

Sen mening ko'nglima ko'klamda kirding...

Ruhim osmoniga, el yotar oldi  
Qop-qora bulutlar chiqdilar suzib.  
Jo'nading – mensiz ham oshig'ing olchi,  
Shamollar uyg'ondi dunyoni buzib.

So'ng yomg'ir... har qalay sen buni tushun,  
Har tugul ko'klam bu – yomg'irli kunlar.  
Ruhimda bulutlar yig'ladi yum-yum –  
Nomardman, tomchi yosh to'kkan bo'lsam gar.

Jo'nading boqmasdan na o'ng-u, na so'l,  
Bir so'z demog'imga ochirmasdan lab.  
Ruhimda yomg'irlar yog'averdi, so'ng,  
Sellari ko'zimdan oqdi sharillab...

\* \* \*

Men yaxshi ko'ryapman sizni tobora.  
Tobora ko'zimdanda yitmoqda tuman,  
Qarangiz, qisqarib boryapti ora,  
Orada to'siq yo'q endi umuman.

Men yaxshi ko'ryapman sizni kun sayin,  
Kun sayin yaqindir diydoringiz, yor.  
Yo'llar ko'p ravondir, havo ham mayin,  
Mayin sunmoqdadir kosagul alyor.

Men yaxshi ko'ryapman sizni shunchalik,  
Shunchalik muhimdir endi zor, dodim:  
Xudoyim, ishqilib salom-u alik  
Umricha bo'lsa bas, qolgan hayotim.

Men yaxshi ko'ryapman sizni tobora...

\* \* \*

Mana bu hovliga urush tosh otgan,  
Deraza boqadi ko'zlari sinib.  
Kampir – ona esa sandiqda yotgan  
Uchburchak xatlarga yashar isinib.

Uning darvozada otadi tongi,  
Kuni ham darvoza oldida tugar.  
Uylamoqchi bo'lgani uch pahlavoni  
Qirq yildirki, qaydadir urushni quvar.

## SHE'R

Bu qo'shiqni mendan ilgari  
Aytib qo'ymish Navoiy, Bobur.  
Lekin netay yashagan sari  
Pasaymadi ko'ksimda hovur.

Ko'rinsa-da garchi ko'p sermunga,  
Yulduzlarga ko'nglini yorib,  
Hali-hamon yig'laydi yum-yum  
Rauf Parpi, Abdulla Orif.

Bu qo'shiqning baland avjiga  
Kimlarningdir yetmay ovozi.  
Yurarlar ich fikri ichida,  
Qo'llarida buzilgan sozi.

Jism-u jonim etganча nimta,  
Yetmasaydi boshga bu vulqon.  
Axir mening tomirlarimda  
Tobora tez oqayapti qon.

Tobora tun-kunim qorong'u,  
Osmonimda quyosh yo'q, oy yo'q.  
Yer oshimga qo'shyapti og'u,  
Oyog'imni bosmoqqa joy yo'q.

Shundanmi bu dunyoning mudom,  
Ko'rinmaydi toqi-yu tagi.

Meni esa saqlaydi omon,  
Kuyib-kuyib kuylash istagi.

Bilamanki, nafasim yetmas,  
Endi, mayli, koyima-koyi.  
Men baribir chiqarmasdan sas  
Bu qo'shiqni qilgum xirgoyi.

\* \* \*

Ko'nglimda tug'ildi safarga mayl,  
Xohishni yengmoqlik dushvordir, axir,  
Shaharga ketyapman, qishlog'im, xayr,  
Qishloq-chi, biram jim, biram toshbag'ir.

Dalalar ifori o'zimda qoldi.  
O'shal dil tusagan serhasham ma'vo –  
Meni ham sershovqin bag'riga oldi,  
Ammo u nechundir befarq, beparvo.



## YOZGA

Ko'klamning poyiga qo'shiqlar bitib,  
Tiz cho'kdim suyaksiz odamlarga xos.  
Bugun bog'larimdan bahorlar ketib,  
Bugun farmoningga muntazirman, yoz.

Bahorga ketma, deb yolvorganlarim,  
Sening kelishingga nafratim emas.  
U mening Nuriyam – singlim, sarvarim,  
Singilning ko'nglini olmasa bo'lmas.

O'zimni oqlamam, seni ovutmam,  
Shunchaki bor gapni aytgumdir, xolos  
Va shuning-chun juda issiq bo'lsang ham,  
Senda ham, seni ham yashaydurman yoz.

Sen esa do'st kabi ranjimay mandan,  
Gullayver, gullayver, gullayver durkun.  
Men seni hech qachon unutmagayman,  
Men seni eslayman yomg'irli bir kun.

## YUPANCH

Sen meni kechirgil, sen meni tushun...

Poyimga chalkashding yelib-yugurib  
Vale bas kelolmay toliqding, tolding.  
Yalang oyog'ingga tikonlar kirib,  
Izlarimdan nochor termulib qolding.

Qolding egat ichra ko'zlaring yoshli,  
Men ketdim ortimga qaramasdan tik.  
So'ng kunlar boshlandi issiq, quyoshli,  
Mendan ranjimagin axir, bolalik.

Bu yer bir bog' erur gullashga kirgan,  
Ko'zlariga ko'rinmas oyoqning osti.  
Sening ko'ylaging-chi, boz-boz yirtilgan,  
Seni obkelishga or qildim, rosti.

Endigi safarim garchi yaqindir,  
Garchi bu yo'llarda kerakdir yo'ldosh.  
Garchi yoshlik umrim olov, chaqindir,  
Baribir uni ham qilolmam yo'ldosh.

Endi borar yo'lim qorli, qirovli,  
Daraxtlar turadi marmar ko'ylakda.  
To'xtar manzilibda jimjit bir hovli,  
Obtovalar meni kutar yo'lakda.

U yerda yangramas qahqaha, jarang,  
Gap borar farzandlar to'y borasida.  
...Bu sho'x yoshlikni ham obketolmayman  
Sochiga oq tushgan odamlar orasiga.

Sen meni kechirgil, sen meni tushun.

### ENAMNING SHE'RI

Tik tursang yetguday pasayar osmon,  
Qad kerib bermalol yura olmaysan.  
Yashamoq ulkandir, sen mitti bir jon,  
Ming bir yumushiga ulgurolmaysan.

Quloqni teshguday chiqillar soat,  
Shu qadar daf'atan qisqarar kunduz.  
Hatto, ko'zlaringga ko'rinadi vaqt,  
Bir kuni umringga kirib kelsa kuz.

Sen bilan hech kimning bo'lmaydi ishi,  
Hamma o'z yo'lida yurgani-yurgan.  
Senda bolang g'ami, bolang tashvishi,  
Dunyo manglayingga keladi birdan.

## UMRZOQ SHE'R

Orzulari osmon bolalik paytim,  
Hayrat, hayajondan hovuchlab yurak,  
Ne bir yig'inlarda necha bor aytdim:  
"Bizning ko'chada ham bayram bo'lajak..."

Bu G'afur G'ulomning mujdasi, she'ri,  
Har g'alaba kuni aytardim yoddan.  
Aytardim hijjalab va chertib-chertib,  
Shukronalar aylab shunday hayotga.

Bo'yimni o'stirdi yog'ilgan qarsak,  
Diydamni yumshatdi ko'z yoshlar – daryo.  
Qo'lsiz bobolarning ko'kragi xarsang,  
Muqaddas xotira, muazzam faryod.

Ular tilga kirsa vujudim quloq,  
Butun nafasimni ichimga yutdim.  
Shundan ko'kragimda ko'z ochib buloq,  
Men G'afur G'ulomning yo'lini tutdim.

Bugun ul chollarning ko'pi yo'q – umr.  
Bori ham ko'chaga boqarkan intiq.  
Xarsang – xotiraga urilar bir-bir,  
Dunyoda ko'rgani beshotar miltiq.

Hammasi ko'ziga keladi qaytib,  
Shundanmi kunlardan yuragi zada.

Paxtakor o'quvchi qizlar she'r aytib,  
Daryoday oqadi axir ko'chada.

Ayting, chimchilayin qay bir yerimni,  
Ayting shoirligim necha pullik gap.  
Toki biron kuni, biron she'rimni,  
Yuragin hovuchlab aytmasa maqtab?!

Axir mushoira bo'lsa gar qayda  
Mening shoir ko'nglim gulday so'lajak.  
Mudom o'sha bir she'r jaranglar qayta:  
"Bizning ko'chada ham bayram bo'lajak..."

### QUYOSHNI KUZATIB

Shunday... kengliklarga tushar ekan shom,  
Meni ham o'ziga maftun qildi G'arb.  
Aql-u hushim olib qontalash osmon,  
Termulib toliqdim xayollarga g'arq.

Shunda deng, da'atan ortimga boqdim  
Va ko'rdim: bariga beparvo, befarq.  
Sochiga yulduzlar taqar edi jim,  
Alvon ranglarini o'g'irlatgan Sharq.

\* \* \*

Bu ayol eridan muhabbat kutdi,  
Mehr kutib yurdi qaynonasidan.  
Er shirin so'zini begona tutdi,  
Mehrini qizg'ondi qaynonasi ham.

Bu ayol mendan ham shafqat tilandi,  
Sizdan-da so'ranib e'zoz, e'tibor,  
Yashadi o'zining yolg'iz dilbandi –  
O'g'lining olovday nigohiga zor.

Men-ku tinglamadim uning dodini,  
Siz ham qilmadingiz zoriga parvo.  
Endi esa olib xotir, yodini,  
Ko'p yorug' so'zlarni aytayapmiz, o.

Bu ayol yashadi mehrga muhtoj,  
E'tibordan qolib qattiq sovqotdi.  
So'ng isinmoq bo'lib nochor, noiloj,  
O'zini olovning qo'yniga otdi.

Bu ayol bizlardan insonlik kutdi...

## BEHI DARAXTI

Hasrat – behilarni to‘kmaydi aslo,  
Qo‘rqar oyoqosti bo‘lishdan bir kun.  
Kuz uning niyatini tushunmay ammo,  
Qoshiga bostirib keladi dilxun.

Lekin behilarning sabog‘i mahkam,  
Qadrini yer qilmay turar sernufuz.  
So‘ng haqqi bordayin beparvo, beg‘am,  
Uni yulqiy boshlar yoqavayron kuz.

Yanada yovuzroq ko‘rinmoq bo‘lib,  
Barglarin erinmay, bittalab yular.  
O‘z qilgan ishidan o‘zi zavq olib,  
Yalang‘och daraxtning ustidan kular.

Och, o‘tkir shamollar izillab, daydib,  
Daf‘atan sovqotib ketsa ham dunyo.  
Bu daraxt sovuq, deb hech gapirmaydi,  
Hasrat – behilarin to‘kmaydi aslo.

## QISH

Men haqda ko'ngildan kechgan gaplarni  
Elanib-elanib un bo'lib aytar.  
Menday qattiqquloq, menday tosh karning  
Qulog'iga quyib, quyilib aytar.

Faqat tinglamayman, o'zimni o'zim,  
Hammadan komron ko'raveraman.  
U gap uqtiradi qulog'im cho'zib,  
Men burnimni tortib yuraveraman.

Orqamdan gapirmas, ko'ngli, ko'ksini  
O'rtagach soladi yuz-ko'zim demay.  
Ba'zan yonib aytar, ba'zan o'ksinib,  
Men yashayman uning qadriga yetmay.

Gohida yo'llarim yaxmalak qilib,  
Hayotda yurishni o'rgatar chunon.  
Shundan uni hatto, shumniyat bilib,  
Sodiq do'stligiga qilganman gumon.

Lekin u kulmaydi, kuldirmaydi ham,  
Achitib-achitib, chimchilab aytar  
Va o'zining keskin so'zlari bilan  
Meni yengib qo'yar uchrashgan paytlar.

Baribir odatim qilmayman kanda,  
O'zimni bilaman hammadan tugal.  
Balki u shundanmi ketayotganda  
Yig'lab xayrlashar men bilan har gal.



## MAJNUN

*Ma'murjonga*

Zoring bor, zo'ring yo'q – zamona zayli,  
Kuching ko'z yoshingga yetdi-ku faqat:  
“Roziman, yaxshi bor, baxtli bo'l, mayli,  
Ko'ksimga sig'magan ulkan muhabbat”.

Tun edi. Hovlida namozshomgullar  
Tonggacha besh marta “Tez yordam” kutdi.  
Qo'rquvdan oqarib ketganda sahar  
Namozshomgullari seni sir tutdi.

Kunduz seni shamol izladi daydib,  
Yulduzlar misoli suvga tushgan cho'g'.  
Balki oy... Bulutlar ko'chayotgan payti –  
Hech narsa ko'rmaydi. Aytolmaydi, yo'q!

Do'stlaring axtardi ovutgani yo,  
Shunchaki o'tirmoq girdida jimjit:  
“Sen uni qayerga yashirding, dunyo,  
Qani u, sochlari jingalak yigit?”

Xona tor. Havo dim. Deraza ochiq,  
Uchinchi qavat-u, qilt etgan yel yo'q.  
Hamma shivirlaydi: “Sal telba oshiq,  
Yuragida qolmish sevgi solgan cho'g'”.

Otasi, onasi, xolasi tugal,  
Ostonasin hech kim bosib o'tmas tik.  
Faqat shu xabarga quvoning bugun:  
Dunyoda Ma'mur bor – Majnunlar tirik.

### LO'LI QIZGA

Men jarning labiga osilib qoldim –  
Sig'madim, tor keldi hayot otli yo'l.  
Bu yo'ldan bir-birin gapga solishib  
Odamlar o'tdilar boqmay o'ng-u so'l.

Charchog'im na do'st-u, na dushman bildi.  
Dedim: "Ketyapman, hayot, rozi bo'l..."  
Shunda qaylardandir menga cho'zildi  
Dunyoda eng nozik, eng baquvvat qo'l.

Bilmam, ne sababdan doimo sening  
Olganing oltin-u, tutganing tillo.  
Mana, men ham nochor uzatdim qo'lim:  
"Ozgina umid ber, ilinj ber, illo..."

\* \* \*

Bilmadim, tomirim suvga yetdimi,  
Yulduzni urdimi shoxlarim, bo'yim?!  
Yo g'aflat bosdimi, aql ketdimi,  
Opajon, men seni tush ko'rmay qo'ydim.

Bulutlar bag'ridan tuynuklar ochib,  
Tog'li qishlog'ingga bir-bir bo'yladim.  
O'rning bilinganda barglarim sochib,  
Devona shamollar bilan o'ynadim.

Yillarki, diydamga ko'rsatmasdan yuz,  
O'yilgan bag'rimni qaytadan o'yding.  
Dunyoda nima gap, dunyoda ne so'z,  
Ne bo'ldi, nahotki sog'inmay qo'yding?!

Seni ko'rgim kelar o'ngmi yo tushda,  
Faqat shul... shoxlarim ko'klarga ketgan.  
Opa, ucholmasman aylanib qushga,  
Mening tomirlarim suvlarga yetgan.

## “YORILTOSH” ERTAGIGA

*Yotoqxonada yozilgan so‘ngso‘z*

Yoriltosh, tegrangda suyaklar, izlar –  
Senga kirolmagan bolalar, qizlar.  
Mana necha yilki zir-zir yugurib,  
Ko‘zlarim ko‘karib, bukilib tizlar.

Yalindim, yalindim: “Simim-yey, sim-sim,  
Yoriltosh, yorilgin, saboting sinsin.  
Bag‘ringda baxtiyor do‘st diydoriga  
Qahratonda qolgan qalbim sig‘insin”.

Tillaringni tishlab sukutda qolding,  
Ajab, sirli-sirli xayolga tolding.  
Mening-chi, bulbulim to‘tiqush bo‘ldi:  
“Yoriltosh, yoriltosh, bag‘ringga olgin.

Yo‘laging qayerda, darvozung qani?!  
Bosh urib yolvoray – ostonang qani?!  
Qish bo‘yi qorlarning ostida qolgan  
Yuragim yechinsin – xosxonang qani?!”

Bildimki, ichingda ulkan shahar bor,  
Faqat yalinishim befoyda, bekor.  
Chunki milyonlarga ochildasturxon  
Bo‘lgan bag‘ring menga kelib qoldi tor.

Bildim, sen kimga bol, kimga zaharsan,  
Kimlarga qaro tun, kimga saharisan.  
Kim qardosh, qarindosh, kimga ko'z-u qosh,  
Bir menga qolganda yopiq shaharsan.

Men asli tog'lardan ko'zda yosh edim,  
Qaylarga ketayin olib bosh endi?!  
Ko'nglim kuylariga erimagan, ey  
Qog'ozboz, quloqsiz, bag'ritosh kentim!

Sen shunday boqmasdan ko'zlarda yoshga  
Aylanib bo'lgansan temirga, toshga.  
Yo'qsa, sodda ko'ngil, sodda dil bilan  
Kim kiribdi, axir, ikki ming yoshga?!

## DASHT-U DALALARGA QAYTISH

*Akam SIROJIDDINga*

Men seni bahorga burkayman dedim,  
Dedim, bog'-rog'larga bo'lasan maskan.  
Keyin old-ortimga qaramay ketdim,  
Ketdim, ariq qazib suv obkelaman.

Bildim, qaylardadir tosh qayrar daryo,  
Bildim, kutaverib kul bo'lding, dashtim.  
Men ketdim qishloqlar bag'rida uryon,  
Men shaharlar ichra uzoq adashdim.

Totib sayyohlikning azob-u gashtin,  
Yo'l yurdim, mo'l yurdim poy-u piyoda.  
Lekin uchratmadim o'zingday, dashtim,  
Bag'ri keng dunyoni manov dunyoda.

Suvi tashlab ketgan quruq o'zanga,  
Bir kuni daf'atan tutashib yo'lim.  
Engashsam suv olay, deya ko'zamga –  
Qirg'og'i tikmikan, yetmadi qo'lim.

Qirq quloch qudug'ing bor bo'lsin, endi,  
Uning ko'zlariga jon, son tilayver.  
Toshlarga urilib ko'zam ham sindi,  
Ko'klamingga ko'kdan ehson tilayver.

Bir tegirmon ariq yoki bir ko'za,  
Loaqal bir jilg'a suv yo'q, bir qultum...  
Sen bunchalar mechkaysan ko'za,  
Daryo, sen bunchalar qizg'anchiq bo'lding?!

Tushlarimga kirib o't-o'lanlaring,  
Yovuq-yiroqlarda shamolday yeldim.  
So'ng alamim olti, sog'inchlarim ming,  
Ko'zim daryo bo'lib poyingga keldim.

Tegrangda bir tog'lar qad kergan mag'rur,  
Yuksak-yuksaklarga qurgansan maskan.  
Senda faqat yellar oqa oladur,  
Do'ppimni obqo'yib o'ylab qarasam.

## TASHRIF

Ko'k eshik.  
Ohorin saqlagan sharqona naqshi,  
Raqami... yo'q shekil...  
Kimliging ko'rgali qaragich oynak  
Va itning yo'qligi yana ham yaxshi,  
Afsus, poyabzallar uch eshakka yuk.

O'zga uy. Ko'k eshik.  
"12"ning o'ng tomonida  
O'q yegan yurakning surati turar –  
Bo'yi yetgan qiz. Ismi Dilafro'z.  
Ijaraga qo'ymaydi ular.

Birinchi qavat.  
Oddiy va jo'n oq eshik.  
Yaraqlaydi qizg'ish rangli "1".  
Qo'ng'iroq tugmasi – musiqiy mujda  
Qo'l ursang... marhamat,  
Chiqib kelar yo chol, yo kampir.  
Endi o'zing madad bo'l, jur'at!



\* \* \*

Bugun turib-turib ko'kayim cho'kdi,  
Sizni ko'rgim keldi da'atan, tuyqus.  
Bog'larda daraxtlar ko'nglini to'kdi:  
"Aldadi. Kelmaydi. Umidingni uz..."

Shunday oqshom oldi, tongotar oldi,  
Siz kelar yo'llarga boqdim intizor.  
Bilmayman, bog'larga kim ko'ngil soldi,  
Bog'larning men bilan nima ishi bor?!

Nima ishi bor yo'lning men bilan?  
Ranjib yurishimdan ne nafdir unga?!  
Yo'l nega eshilib kulgani-kulgan,  
Mening tosh boshimga tushgani kundan?!

Battar lovullatib istagim cho'g'in  
Qaro tun shoshilib qo'ndi yelkamga.  
Bular buncha kuydi mening bor-yo'g'i,  
Yor, sizni bir bora ko'rgim kelganga?!

## SAMARQAND

Seni keragicha bilmayman, shahar,  
Adashib yuraman ko'chalaringda.  
Bir qo'nib o'taman goh shom, goh sahar,  
Shu bitta jonimni parchalab mingga.

Ishim, tashvishlarim sochimdan ko'pdir  
Va mudom shoshilinch bo'ladi yo'lim.  
Sen ham xat yozmaysan, o'zbeksan axir,  
Mehmon kutishdan hech bo'shamas qo'ling.

Men-chi, o'zing kabi pastlik qilmayman,  
Qiyin jumboqlarga yetmasa aqlim.  
Hazil-huzil bilan, hatto bilmayman,  
Seni berib qo'ydim qay kuni, shahrim.

Shundanmi sen meni tanimaysan, yo,  
Shunchaki beparvo qarshi olasan  
Va o'zing o'zingdan ortmasdan aslo  
Ketsam ham jimgina qarab qolasan.

Shundanmi, tasodif yoki tar qolib  
Umrinni bog'lasam kechalaringga.  
Xuddi bir begona sayyoh misoli,  
Adashib yuraman ko'chalaringda.

## BAHOR

1

Bu qizning tashrifi, qadami qutlug'...

2

Kundan-kun dalaga ertaroq chiqib,  
Kun sayin kechikib qaytadi quyosh.

3

Aql kirib qoldimikin yo hartugul  
Qushlar inlariga qaytdilar yana.

4

Insofmi, imonmi, baribir,  
Baribir ming bor xayriyat –  
Ko'ylaklarin kiydi daraxtlar!

5

...Yigitlar tushunar – indashmaydi, jim.  
Sho'x qizlar ortimdan kuladi.  
Qo'shni qiz tushimga kirganligini  
Muxtasar g'unchaga ishongan edim,  
U esa og'zidan gullabdi.

## QO'SHNI

Nihoyat bu gapning tagiga yetdim,  
Sizni sog'inardim uyda tinchgina,  
Avval shivir-shivir keldi qaydandir,  
Shunda sovuq titroq chiqdi ichimdan:  
"Shamoljon, parraging tezroq aylantir".

Ko'rdim, hovli yuzi, butun tashqari,  
Bir bo'lib o'sardi sap-sariq alaf.  
Baland edi uning avj mashqlari,  
O'sardi shiddat-la, parvoyi palak.

Men bahor chog'ida axir hech narsa  
Ekmagan edim-ku hovlimizga, deb.  
Ildizin izladim avval ko'zim-la,  
Keyin qo'lim bilan – es-hushimni yeb.

Betanim axtardim, uzoq axtardim,  
Bu badbo'y alafning uchi-quyrug'in.  
Axir hovli bo'ylab g'oyat betartib,  
Bir palak yotardi ming-milyon bo'g'in.

Tanamda gohida kuch-quvvat toshdi,  
Gohida charchadim – hushimdan ketdim.  
Palak borib-borib devordan oshdi  
Va men hamma gapni tushunib yetdim.

## MUNDARIJA

<i>Abdulla Oripov. Umidli shogirdim edi.....</i>	3
“Ko‘nglima orzular solgan qishlog‘im...”.....	5
Qishloq sog‘inchi.....	6
Ey, vatan.....	7
Dasht.....	8
Otamning yurti.....	9
“Gulga kirgan bog‘larim qoldi...”.....	10
“Seni deb bilmaman tinim...”.....	11
“Tayyorman, kel endi...”.....	12
“Sen mening umrimning avvali...”.....	12
Keldim.....	13
"Maqtadim, madh etdim...".....	14
“Shiddatli shamollar...”.....	15
Akam Sadiriddinga xat.....	16
Ona.....	17
Onamga xat.....	18
Shoir.....	19
“Yurdim...”.....	20
"Ko‘krak qafasimda...”.....	21
Onam va men.....	22
Qishloqdan qaytish.....	23
Abdulla Orif so‘zi.....	24
Kasalxonada.....	26
Bir kam dunyo.....	26
Asorat.....	27
“Yashil nasim eding...”.....	28
Men bir daraxt.....	29
“Assalom alaykum...”.....	30
Sunbulada.....	31
Kamtar Ulug‘bek.....	32
“Avval taqdirimning kamiga kuydim...”.....	33
“Sim xabar qo‘lingda...”.....	34
Ijara uydan ko‘chish.....	35
Vido.....	36

Taskin.....	37
“Men seni...” .....	38
“Ko‘rasan...” .....	38
Yoz.....	39
Latifa.....	42
Umr.....	43
Falokat.....	44
“Uyashayveradi...” .....	46
Chori Avaz marsiyasi.....	47
Men yetgan haqiqat.....	49
“Yana tuman...” .....	49
Xo‘rsiniq.....	50
“Kim dedi...” .....	54
Kuz.....	55
“Besamar lahzalar...” .....	56
“Qirlarning to‘shida eriyotir qor...” .....	57
Tuganmas ertak.....	58
“Yoshlik meni tark etmay turib...” .....	64
Qorong‘u tun ertagi.....	65
“Tog‘larga qor tushdi...” .....	66
Jamilaning she‘ri.....	67
“Bo‘g‘zimga tiqilib qoldi...” .....	68
Bahor.....	69
“Kuzakda makkadan bo‘shagan paykal...” .....	70
“Tong yorishib qoldi...” .....	71
Askarning she‘ri.....	72
Onaizor.....	73
“To‘g‘ri topding...” .....	74
“Endi barqut...” .....	75
“Olis-olislarda yig‘lar Qo‘shrabot...” .....	76
“Yurtni so‘rab turgan...” .....	77
“Kimga keragi bor...” .....	78
“Sonsiz fojialar...” .....	79
“Sen endi...” .....	80
“Gullasam har bahor...” .....	81

“Bog‘da bo‘y sochib gullar...”	82
“Kelmasangiz, kelmang, mayliga...”	83
“Yo‘llarga termulib toldim...”	84
Ayol.....	85
Bu tun.....	86
“Sizni ko‘rib o‘tlarda qolgan...”	87
Do‘ngbo‘yin.....	88
“Kuz...”	89
“Faqir bo‘lsang...”	90
“Bahordan gul uzolmadim...”	91
“Yuragimni yutib...”	92
Kuzatish.....	93
“Men yaxshi ko‘ryapman...”	94
“Mana bu hovlida...”	94
She‘r.....	95
“Ko‘nglimda tug‘ildi...”	96
Yozga.....	97
Yupanch.....	98
Enamning she‘ri.....	99
Umrzoq she‘r.....	100
Quyoshni kuzatib.....	101
“Bu ayol...”	102
Behi daraxti.....	103
Qish.....	104
Majnun.....	105
Lo‘li qizga.....	106
“Bilmadim...”	107
“Yoriltosh” ertagiga.....	108
Dasht-udalalargaqaytish.....	110
Tashrif.....	112
“Bugun turib-turib...”	113
Samarqand.....	114
Bahor.....	115
Qo‘shni.....	116

**UO'K:** 821.512.133-1

**KBK:** 84 (50')6

**F 74**

**F 74 Ravshan FAYZ**

**Yurakning poyonsiz adirlarida** [matn]. {she'rlar}/

Ravshan Fayz. – T.: «Adabiyot» nashriyoti,

2021. – 120 b.

*Adabiy-badiiy nashr*

**Ravshan FAYZ**

**YURAKNING POYONSIZ ADIRLARIDA**

*She'rlar*

Muharrir: *Dilrabo Mingboyeva*

Badiiy muharrir: *Farrux Ermatov*

Sahifalovchi: *Azamat Qayumov*


Musahhah: *Dilfuza Mahmudova*

**O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI**

**«ADABIYOT NASHRIYOTI» MCHJ**

Nashriyot litsenziyasi: AI № AA 0043. 27.01.2021.

100129, Toshkent shahri, Markaz-15. 1/90.

 (+98) 127-30-04.

Bosishga 20.08.2021-yilda ruxsat etildi:

Ofset qog'oz. Qog'oz bichimi: 70x90<sup>1/32</sup>.

Ofset bosma. Hisob-nashriyot t. 3.7.

Adadi: 2000 nusxa. Buyurtma №

“AZMIR NASHR PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

100200, Toshkent shahri, Adham Rahmat ko'chasi, 10-uy.